



2024

ASLANOV AKMAL SUBXANOVICH

**UNDERSTANDING OF MULTIPLE
MEANING WORDS IN UZBEK
LANGUAGE**

DOI:- <https://doi.org/10.37547/gbps-33>

PUBLISHED DATE:- 22 MAY 2024

ISBN:- 978-1-957653-41-9

A large magnifying glass with a green frame is positioned over a circular area of a document. The document text is slightly blurred but clearly shows the word 'degree' followed by a bullet point and the number '1'. Below it, the words 'thing happens' and 'equival' are visible. The magnifying glass is centered over the title 'Multiple Meanin Words' and the subtitle 'Reading Skills'.

**Multiple Meanin
Words**

Reading Skills



9 781957 653419

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
TASHKENT MEDICAL ACADEMY



ASLANOV AKMAL SUBXANOVICH

**UNDERSTANDING OF MULTIPLE MEANING WORDS IN UZBEK
LANGUAGE**

EDUCATIONAL-METHODICAL MANUAL

Tashkent - 2024

ISBN:- 978-1-957653-41-9

DOI:- <https://doi.org/10.37547/gbps-33>

Tuzuvchi:

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrası katta o'qituvchisi, f. f. n. A. S. Aslanov

Taqrizchilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasi Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD) D. X. Tashpulatova

O'zbekistan Davlat jahon tillari universiteti Ispan tili amaliy fanlar kafedrası dotsenti, pedagogika fani bo'yicha falsafa doktori (PhD) A. X. Jo'rayev

ANNOTATSIYA

O'quv-uslubiy qo'llanmada o'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarning kelib chiqishi va ularning yasalishi (metonimiya, sinekdoxa, metafora, kinoya), ko'p ma'noli so'zlarni nofilologik talabalarga o'rgatish metodikasi, yangicha o'qitish usullari va mashqlar tizimi haqida batafsil yoritib berilgan.

Leksikologiya, semantika va leksikografiya bilan shug'ullangan ko'plab tilshunoslar keng ko'lamli lingvistik izlanishlardan so'ng, har bir aniq tilning so'zlari yagona tizim yoki bir qator o'zaro bog'langan quyi tizimlarni tashkil qilishiga e'tibor qaratdilar. Ayniqsa, o'zbek tilida ko'p ma'noli so'zlarning tushunilishi jihatlari tadqiqi yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Muayyan tilning lug'at boyligi yo yaxlit tizim yoki o'zaro bog'liq bo'lgan quyi tizimlar ketma-ketligini o'z ichiga olishi haqidagi kuzatuv leksikologiya, semantika va leksikografiya sohalariga ixtisoslashgan ko'plab tilshunos olimlarning tadqiqotlari markazida bo'ldi. Ushbu tilshunoslar o'z kuchlarini ushbu mavzuni kengroq yoritishga va tahlil etishga bag'ishladilar. O'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarning qanday tushunilishini tahlil etishda katta yutuqlarga erishilganini so'nggi tadqiqotlar yaqqol namoyon etdi.

O'quv-uslubiy qo'llanma muayyan tartibda, maqsadga mos reja asosida keng va asosli yoritib berilgan bo'lib, tarkiban ishning umumiy tavsifi, kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqotning maqsad hamda vazifalari, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati Nizomda belgilangan talablar asosida to'laqonli ochib berilgan. Uslubiy qo'llanmadan olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan mashqlar va yaratilgan metodlar nofilologik talabalarning o'zbek tili darslarida kabsga yo'naltirilgan nutqlarini oshirishga xizmat qiladi, hamda ulardan olib boriladigan mashg'ulotlar davomida, mashq va topshiriqlarni bajarishda foydalanish mumkin.

ANNOTATION

In the educational-methodical manual, the origin of ambiguous words in the Uzbek language and their formation (metonymy, synecdoche, metaphor, irony), the methodology of teaching ambiguous words to non-philological students, a new teaching methods and exercise system are explained in detail.

Many linguists engaged in lexicology, semantics and lexicography, after extensive linguistic research, have focused on the fact that the words of each specific language constitute a single system or a number of interconnected subsystems. In particular, the study of the aspects of the understanding of polysemous words in the Uzbek language is rising to a new level.

The observation that the vocabulary of a given language includes either a single system or a sequence of interrelated subsystems has been the focus of research by many linguists specializing in the fields of lexicology, semantics, and lexicography. These linguists have devoted their efforts to a wider coverage and analysis of this topic. Recent studies have clearly shown that great progress has been made in the analysis of the understanding of polysemous words in the Uzbek language.

The educational-methodical manual is presented in a specific order, on the basis of a purposeful plan, and contains a general description of the work, an introduction, three main chapters, general conclusions and recommendations, and a list of used literature. In the introductory part of the work, the relevance of the topic, the object and subject of the research, the goals and tasks of the research, the theoretical and practical significance of the research results are fully disclosed based on the requirements set by the regulation. The exercises and methods developed on the basis of the results obtained from the graduation work serve to increase the speech of non-philological students in the Uzbek language classes, and they can be used during the training sessions, exercises and assignments.

MUNDARIJA

KIRISH	6
I BOB. O‘ZBEK TILIDAGI KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING NAZARIY TAHLILI	10
1.1 O‘zbek tilida ko‘p ma’ nolilik va unga yondosh hodisalar.....	10
1.2. Ko‘p ma’ nolilikni o‘rgatishga qaratilgan adabiyotlar tahlili.....	19
II BOB. KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNI O‘RGATISH METODIKASI	26
2.1. O‘zbek leksik birliklaridagi ko‘p ma’ nolilikning qurilishi.....	26
2.2. Nofilologik talabalarga ko‘p ma’ noli so‘zlarni o‘rgatish orqali kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirish metodlari.....	31
III BOB. O‘ZBEK TILIDAGI KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHLASHTIRILGANLIK DARAJASINI BAHOLASH	37
3.1. Ko‘p ma’ noli so‘zlarni o‘rgatish orqali nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar ishlanmasi.....	37
3.2. Tajriba-sinov ishlari tahlili	43
XULOSA	47
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	50

KIRISH

O‘quv-uslubiy qo‘llanma mavzusining dolzarbligi. Davlat ta’lim standartida o‘zbek tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi sifatida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan - muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish belgilab berilgan[9].

Ushbu maqsadni amalga oshirishda o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchilarining oldidagi eng muhim vazifa nutq madaniyatiga ega bo‘lgan ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashdan iboratdir. Nutq madaniyati haqida gap borar ekan, talabalardagi so‘z boyligi va mana shu so‘z zaxirasidan kundalik hayotda foydalanish, shunchaki foydalanish emas, balki qanday foydalanish yo‘llarini o‘rgatish amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning eng muhimi sanaladi.

Talabalar nutqining go‘zalligi, izchilligi va ta’sirchanligi asosan ularning lug‘at boyligi bilan bog‘liq ekanligini inobatga olgan holda, ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflardan boshlab to oliy ta’limgacha bo‘lgan davrda o‘quvchilar va talabalar o‘rganadigan so‘zlar lug‘atini kengaytirish o‘zbek tili va adabiyoti talabalar faoliyatining asosini tashkil etishi lozim[6].

Inson shaxsining kamol topishida, ma’naviy dunyosi, tafakkuri, nutq boyligi shakllanishida ona tili darslarining to‘g‘ri tashkil etilishi, mazmunan keng qamrovli bo‘lishi muvaffaqiyat garovi sanaladi. Zero, o‘zbek tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov ham o‘zining “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida ona tilimizning ana shu jihatiga alohida urg‘u bergan: - Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan Ona tili - bu millatning ruhidir [1]. Shu bois o‘zbek tili ta’limi samaradorligini oshirish davlat siyosatiga darajasiga ko‘tarildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-aprelida qabul qilingan qaroriga muvofiq bugungi kunda ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv vujudga keldi. Unda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil qilish zarurligi qayd etiladi [4].

Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori, hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish yaxshi samaralarni qo'lga kiritishning kalitidir. Shunday ekan, hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida talabalarning bilimi, yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga turli xil ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish lozim[3].

Hayot sur'atlari benihoya tezlashgan bugungi globallashuv davrida talabalarning ijodiy tafakkur qobiliyatini o'stirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon va mustaqil bayon qilish ko'nikmasini shakllantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish o'zbek tili ta'limi oldidagi eng muhim vazifalardan biri sanalishini yanana bir bor eslatgan holda, ushbu vazifalarni amalga oshirishda so'z va uning xususiyatlarini, xususan, ko'p ma'noli so'zlar, uning turlari haqidagi nazariy ma'lumotga ega bo'lish, undan nutqda o'rinli foydalanish ham talabaning nutq madaniyatini shakllantirishga, aytilayotgan fikrning hissiy-ta'siriy jihatdan boyishiga erishishda juda muhim ahamiyatga egadir[2].

Aynan ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning turli xil usullarini ishlab chiqish, ulardan nutqda foydalanishning ahamiyatini talabalarga tushuntirishning yangi, zamonaviy metodlarini yaratish bugungi kun o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Ishlab chiqilgan usullardan samarali foydalanish esa o'qituvchidan o'z fanini puxta bilishni, ilg'or zamonaviy o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini kashf eta olish va

amalda qo‘llay bilishni talab qiladi. Shundagina o‘qitish sifati ham, talabalarning o‘zlashtirish darajasi ham yuqori bo‘ladi.

Talabalar og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish, uning so‘z boyligini oshirish masalasiga to‘xtalar ekanmiz, tilshunoslikning so‘z ta’limoti haqidagi bo‘limi -Leksikologiya ushbu yo‘nalishdagi juda keng imkoniyatlarni yaratib bera olishini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Leksikologiya bo‘limida talabalar duch keladigan birinchi muammo esa so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolaridir. Berilgan so‘z birikmalarini ko‘chma ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratish, ularni o‘zaro qiyoslash asosida so‘zni o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil qilish, so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llab matn yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar talabalarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatish usullarini ishlab chiqish, ushbu mavzuni zamonaviy interfaol metodlar asosida o‘qitish va uning natijalarini o‘rganish bugungi kunda metodika fani oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biridir.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmaning maqsadi: nofiloligik talabalarga o‘zbek tilidagi ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmaning vazifasi:

o‘zbek tili ta’limida ko‘p ma’noli so‘zlar va uni o‘qitish usullarining ilmiy-metodik asoslarini o‘rganish;

ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatishni o‘zbek tili va adabiyot fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida o‘qitish mohiyatini ochib berish;

ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rganish orqali talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan usullar, mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslash;

ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rganish orqali talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan usullar, mashq va topshiriqlardan amaliyotda foydalanish va uning natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili darslarida nutq madaniyatini oshirishda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatishning bugungi holati o‘rganilgan;

ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rganishda darslarni integratsiya asosida tashkillashtirishning usullari ko‘rsatilgan;

ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatish orqali talabalarning nutq madaniyatini, nutq ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan usullar: “Kreativ talaba” usuli, “Zehnli kitobxon” usuli, “Bilag‘on talaba” usuli, “Matn tahlili” usuli, “Qiyosiy tahlil” usuli, “Izohli lug‘at orqali ishlash” usullar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotning obyekti sifatida nofilologik talabalarga o‘zbek tili darslarida o‘rgatiladigan ko‘p ma’noli so‘zlar va ularning yasalish usullari (metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik)ni o‘qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Nofilologik talabalarga o‘zbek tilidagi ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘qitishning mazmuni, shakllari, takomillashtirilgan usullari.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ishlab chiqilgan nofilologik talabalarga ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar, talabalarga ko‘p ma’noli so‘zlar va ularning yasalish turlarini o‘rgatish usullaridan ta’lim jarayonida foydalanilgan. Natijada ta’lim samaradorligi oshgan.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmaning tuzilishi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. O‘ZBEK TILIDAGI KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING NAZARIY TAHLILI

1.1 O‘zbek tilida ko‘p ma’nolilik va unga yondosh hodisalar

Leksikologiya, semantika va leksikografiya bilan shug‘ullangan ko‘plab tilshunoslar, keng ko‘lamli lingvistik izlanishlardan so‘ng, har bir aniq tilning so‘zlari yagona tizim yoki bir qator o‘zaro bog‘langan quyi tizimlarni tashkil qilishiga e’tibor qaratdilar. Umumiy shaklda bu fikrni L. V. Sherba quyidagicha ifodalagan: “So‘zlar... ma’lum bir jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro tushunish uchun xizmat qilib, yagona murakkab “to‘qima”ni, yagona tizimni tashkil etadi, afsuski, odatda, u juda yomon tarzda aks ettiriladi, hatto mavjud lug‘atlarda umuman aks ettirilmagan tizimni tashkil qiladi”.

Tildagi mavjud so‘zlar ikki turga bo‘linadi: 1) bir ma’noli; 2) ko‘p ma’noli. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma’noni ifoda etuvchi o‘zlar bir ma’noli so‘zlar deyiladi. Masalan, kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g‘oya, mimika, qobiliyat, fonema va boshqalar[12].

So‘zlar ba’zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma’noni, gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda boshqa bir ma’no anglatishi mumkin. Masalan, pasaymoq so‘zi gapdan tashqarida olinganda yerga tomon yaqinlashmoq ma’nosini bildiradi. Gap tarkibida esa bilimi pasaydi, ko‘rish sezgisi pasaydi kabi boshqa ma’nolarni bildiradi.

Bu so‘zlar birdan ortiq leksik ma’no ifodalayotgani uchun ko‘p ma’noli so‘z sanaladi. Demak, nutqdan tashqarida bir ma’no, nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda yana boshqa ma’no ifodalovchi so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlar deyiladi. Ko‘p ma’nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so‘z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo‘ladi, ya’ni bir ma’nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so‘z taraqqiyoti ma’no tufayli ko‘p ma’noli so‘zga aylanishi mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlarda 2 xil ma’no farqlanadi: 1) bosh (asl, o‘z) ma’no; 2) yasama (ko‘chma) ma’no. Bosh ma’no so‘zning nutqdan tashqarida

ifodalagan ma'nosi bo'lib, u boshqa ma'nolarning kelib chiqishiga asos bo'ladi[24].

Yasama ma'no bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, og'iz so'zining bosh ma'nosi insonning tana a'zosi, g'orning og'zi, qopning og'zi yasama ma'no. So'zning yasama ma'nosi gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'liq holda anglashiladi.

Ma'no taraqqiyoti qonunlariga ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi hodisalari kiradi.

So'z ma'nosining ko'chishi besh xil bo'lib, ular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik yo'li bilan ko'chish. Metafora (grekcha metaphora – "ko'chirma") narsa va hodisalar orasidagi o'xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo'lgan so'zni ikkinchisini ifodalash uchun qo'llashdir, metaforada shakliy o'xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. Shu tufayli ot, sifat va fe'l turkumlarida metafora yo'li bilan ko'chish hodisasi mavjud. Masalan, tish, engil, pasaydi so'zlarining ma'nosini kuzating[25]:

Tish: odamning tishi (bosh ma'no); arraning tishi (yasama ma'no).

Yengil: 1) yengil eshik (bosh ma'no); 2) yengil ta'zim (yasama ma'no).

Pasaydi: samolyot pasaydi (bosh ma'no); bilimi pasaydi (yasama ma'no).

Metaforaga quyidagilar asos bo'ladi:

1) odamning tana a'zolari nomlari: bet, yuz, burun, quloq, ko'z, lab, tish, elka, oyoq, og'iz kabi;

2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;

3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror a'zosining nomi: qanot, dum, tumshuq;

4) o'simlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;

5) qurol nomi: nayza, pichoq;

6) turli belgi, harakat nomlari bo'lgan so'zlar: baland, past, olmoq, chaqmoq kabi.

L. A. Bulaxovskiy metaforani izohlab: "...atashning belgiga arab ko'chishidir", - deydi[16]. Demak, nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi, ya'ni obyektlar ma'lum belgisiga nisbatan o'zaro o'xshash bo'lgani uchun, birinchisining nomi ikkinchisini ham ifodalaydigan bo'lib qolsa, metafora yuzaga kelgan hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, bunda belgi asosiy o'rinda turadi. Bu belgi obyektlarning xususiyati, tashqi ko'rinishi, vazifasi va boshqalarga nisbatan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham ba'zi tilshunoslar, ko'pincha adabiyotshunoslar metafora bilan konversiyaning belgi negizida yuzaga kelgan turlarini qorishtirib yuboradilar. Belgi negizida yuzaga kelgan konversiyalar konversiyaning ot turkumiga oid so'zlar adektivatsiyasi turi doirasiga xos bo'ladi. Turkiy tillarda narsa yoki voqelikning muhim belgilarini shu narsa yoki voqelikning nomi bilan atash faol hodisadir[33]. Mana shu hodisa natijasida ot turkumiga oid so'zlar adektivatsiyasi bilan metaforani qorishtirib yuborish hollari uchraydi. Shu o'rinda o'zbek adabiyotshunosligining ko'zga ko'ringan nazariyotchisi, filologiya fanlari doktori I. Sultonovning metafora uchun keltirgan misolini tahlil qilib ko'ramiz, ya'ni: po'lat bilak, ipak soch. Tilshunos mazkur birikmalardagi po'lat, ipak so'zlarida metafora yuzaga kelgan, deb ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ammo bu o'rinda po'lat, ipak so'zlarida hech qanday semantik o'zgarish sodir bo'lmadi, balki adektivatsiya sodir bo'ldi. Ya'ni nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi o'xshash bo'lgani uchun nom ko'chishi sodir bo'ldi, ko'chma ma'no hosil bo'lishi yuzaga kelgani yo'q[37]. Balki po'lat, ipak so'zlari o'zlari ifodalagan narsaning belgisinigina ifodalab keldi, ya'ni sifatlik xususiyatiga ega bo'lib qoldi. Tilshunoslikda bu hodisa adektivatsiya deyiladi.

Bosh so'zi hisobida hosil bo'lgan metaforaga misol keltiramiz. Uni po'lat, ipak so'zlari hisobida sodir bo'lgan hodisaga ham qiyoslab ko'ramiz. Bosh so'zi asosan "kalla" ma'nosini anglatadi[57]. Keyinchalik metafora yo'li bilan kelib chiqish, tarqalish joyi ma'nosini ham orttirdi. Ular (har ikki ma'no) ifodalagan tushuncha ma'lum narsalarning boshlanish qismi belgisiga ega ekanligi bilan o'xshash bo'lganligi uchun, metaforaga asos bo'lgan. Demak, metaforaning ham

asos, ham ko'chma ma'nosi obyektlari o'zicha ikkita mustaqil holatdadir. Biroq ular o'rtasida biroz o'xshashlik mavjud. Po'lat, ipak so'zlarida sodir bo'lgan adektivatsiyada bunday emas. Ular avval ma'lum narsani anglatar edi. Keyin uning belgisini ifoda etib keladigan bo'ldi. Ya'ni bosh so'zidagi kabi o'z obyekti belgisiga o'xshash belgili narsani ham ifoda etuvchi bo'lib qolmagan, balki faqat o'z obyektining belgisini ifoda etadigan bo'ldi. Bosh so'zida ham o'zi ifoda etgan narsaning belgisini ifoda etish vazifasini olish hodisasini, ya'ni adektivatsiyani uchratish mumkin. Masalan, bosh joy, bosh qism. Bu birikmalardagi bosh so'zi ham "kalla" leksik ma'nosi obyektinng belgisi ifodasi bilan joy, qism so'zlarining sifatlovchisi vazifasini ham bajargan. Shunga o'xshash po'lat bilak, ipak soch birikmalarida ham po'lat, ipak so'zlari belgi bildiruvchi ma'nolari vositasida sifatlovchi vazifasini o'tagan[39]. Demak, mazkur so'zlar sifat turkumiga xos vazifani bajargan. Metaforaning asos ma'nosi qaysi turkumda bo'lsa, ko'chma ma'nosi ham shu turkumga oid bo'lishi shart. Bu haqda bosh so'zida sodir bo'lgan metaforaning har ikki (asos va tobe') ma'nosiga e'tibor berish mumkin. Adektivatsiyada esa so'z sifatga ko'chishi mumkinligini ko'rib o'tdik. Ularda yangi ma'no yuzaga kelmay, balki ma'no o'zgarmagan holda, o'z obyektini anglatib turib, uning belgisi vositasida sifatlovchilik vazifasini o'tab kelar ekan. Qisqacha aytganda, metafora va adektivatsiya o'rtasida hech qanday umumiylik yo'q. Konversiyaning bir turi bo'lgan adektivatsiya bilan metafora o'rtasida hech qanday umumiylik yo'q va adektivatsiya yangi leksik ma'no hosil qilmaydi.

Metonimiya - narsa, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'no ko'chish hodisasi. Bu aloqadorlik o'rin va vaqt jihatdan bo'ladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo'ladi[35].

Nutqning ekspressivlik vositalaridan biri metonimiya bo'lib, yunoncha "almashtirish yoki nom o'zgartirish" degan ma'noni bildiradi. Metonimiya - o'zlashtirma so'z bo'lib, bir so'zning boshqa so'z bilan almashtirilishini anglatadi, u bilan assotsiatsiya paydo bo'ladi. Bu iboraning ko'chma ma'nosi sifatida ham

tushuniladi. Bunda ko‘chma so‘zning predmet, tushuncha yoki harakatga o‘xshashligi mavjud bo‘lishi shart emas. Metonimiya bir-biriga o‘xshamaydigan tushuncha va predmetlarning uzviyligini bildiradi. Bunday “turli obyektlar” ga bir uyning aholisi va uyning o‘zi kiradi (“butun mahalla hududni tozalashni boshladi”).

Metonimiyani ko‘pincha metafora bilan chalkashtiriladi. Chunki metafora ham ma‘lum bir ibora yoki obyektning majoziy ma‘nosidir, lekin faqat o‘xshashdir va metonimiya yondosh so‘zlarning o‘rnini bosadi. Ushbu nutq vositasining mohiyati hodisa yoki obyektning butun ma‘nosini emas, balki muhim belgisini nomlashdir. Shunday qilib, masalan, “Men sizni ostonada qo‘ymayman” to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘noda tushunilmaydi, lekin bu holda ostonaga uyni anglatadi.

Metonimiyaning turlari. Tushunchalar yoki harakatlarni bir-biriga bog‘laydigan yondoshligiga qarab, vaqtinchalik, fazoviy yoki mazmunli (mantiqiy) metonimiya qo‘llaniladi[23].

1. *O‘rin-joyga nisbatan metonimiya* ma‘lum predmetlarning, binolarning joylashuvi yoki ma‘nosiga ko‘ra ko‘chma ma‘nosini bildiradi. Masalan, binoning nomi uning hududida yashovchi yoki ishlaydigan odamlarga bog‘langanda. “Katta zavod”, “yuqori uy”, “keng zal”, bu yerda binolarning nomi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘noga ega va “butun zavod mukofot oldi” yoki “butun shahar mitingga chiqdi” asosiy so‘zni anglatadi, joy va xonani emas, balki odamlarni ko‘rsatadi.

2. Metonimiyaning vaqt bilan bog‘liq shakli xuddi shu hodisa yoki predmetning bevosita yoki ko‘chma ma‘noga ega bo‘lishi mumkinligini, ya‘ni bir tomondan, bu harakat, ikkinchi tomondan, tugallangan natija ekanligini bildiradi. Masalan, “o‘ymakorlik” so‘zi, lekin majoziy ma‘noda “o‘ymakorlik bilan bezatilgan”, “kitob nashri” ko‘chirishda “yorqin nashr” (ya‘ni tayyor kitob). Vaqtni bildiruvchi so‘z birikmalari va iboralar shu vaqt oralig‘ida sodir bo‘lgan hodisani bildirishi mumkin.

3. Mantiqiy metonimiya eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Moddalar mavzuga o‘tkaziladi (“rasmlar ko‘rgazmasi”, “tanlovlarda kumush yoki bronza

qo‘lga kiritgan”). Harakat narsaga o‘tkaziladi, masalan, hujumlar va hujum qiladigan odamlar. Mavzu elementga o‘tkaziladi, masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri “ko‘za sindirdi”, “vilkani yo‘qotdi” va ko‘chma ma’nosi “uch qoshiq yedi”, “ikki kosa ichdi”, “butun chelak sarfladi”.

Metonimiyaning turlariga sinekdoxa kiradi, ya’ni uning qismlaridan hosil bo‘lgan majoziy yoki vositalar orqali ifodalash.

Kundalik nutqda metonimiya o‘rinlari keng tarqalgan. Masalan, ular: “samovar qaynayapti” yoki “choynak qaynadi”, deyishadi, lekin samovar yoki choynakning o‘zi emas, ulardagi suv qaynaydi; “chiroq yonadi”, lekin chiroqning o‘zi emas, balki undagi kerosin yoki moy yonadi; “Bu vagon ho‘l bo‘ldi”, lekin vagonning o‘zi emas, undagi meva nam bo‘ldi; “Men butun tovoqni yedim”, “u butun stakan ichdi”, lekin ular plastinka yemaydilar va idishni emas, balki ularga qo‘yilgan yoki ichiga quyilgan narsalarni ichishadi.

Zamonaviy siyosiy, gazeta nutqida o‘rin metonimiyasi juda tez-tez va o‘ziga xosdir. Bu hukumat nomlari o‘rniga – turli mamlakatlar, turli davlat muassasalari o‘rniga – shaharlar, ular joylashgan va faoliyat yuritadigan binolar nomlaridan foydalanish. Masalan: “Londonning bunga kuchi yetmaydi”; “GM mashinalar narxini oshirdi”; “Oq uy aniqlik kiritdi” va hokazo.

Adabiy tilda va xalq tilida zamon metonimiyalari ham ko‘p qo‘llaniladi. Ular: “bu qanday og‘ir yil edi”, “qanday og‘ir kun edi” yoki “bu mening hayotimdagi eng baxtli kun edi”, deyishadi, lekin ba’zi odamlar uchun baxtli, qiyin, og‘ir, ularning hayotining o‘ziga xos davri bo‘lmasligi mumkin, lekin bu davrda sodir bo‘lgan voqealar va tajribalar ushbu metonimiya turiga misol bo‘lishi mumkin.

Metonimiyaning alohida turi - bu muayyan harakatlar amalga oshiriladigan vositalar (asboblari, organlari) nomlari bilan ko‘rsatilgan iboralar. Mana, kundalik xalq tilidan misollar: “uning ko‘zi juda sodiq”; “tilingizni ushlang”; “Bu yozuvchi juda jonli qalamga ega”; “Uning bunday musiqaga qulog‘i yo‘q”; “qanday nafis qalam” (chizma ma’nosida) va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda, u yoki bu narsa yoki hodisa uning yaratuvchisi, egasi yoki boshqaruvchisi nomi bilan belgilanadigan metonimiyaga tegishli. Ko‘pincha ular aytadilar: “u Navoiyni yoddan biladi”, “men Boburni oldim”, “u Hemingueyni yoqtirmaydi”; yoki: “ular Toshkent shahar kengashida uchrashishdi”, “biz u yerga taksida bordik”.

Ko‘pincha adabiy nutqda va xalq tilida metonimiyalar qo‘llaniladi, ularda ma‘lum obyektlar ular yaratilgan moddaning nomi bilan belgilanadi. Masalan, ular shunday deyishadi: “Men keyin oltin bilan yedim”, “cho‘ntagimda faqat mis bor”, “Unga kumush idishlar berishdi”, “uning ajoyib akvarellarini ko‘rganmisiz”, “bu haykaltarosh bronzada ayniqsa kuchli”.

Sinekdoxa. Narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan o‘zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma‘no ko‘chish hodisasidir. Masalan: Besh qo‘l barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda o‘zimizdan qoladigan tuyog‘imiz... (A.Qodiriy)

Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tig‘, ketmon – “jangchi” ma‘nosida), hayvonlarning biror a‘zosi nomini o‘sha hayvonni ifodalash uchun (bosh, tuyuq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni anglatish uchun (yong‘oq, olma, nok, uzum) qo‘llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo‘l so‘zini “barmoq” ma‘nosida) qo‘llash kabi miqdor munosabatlariga asoslanadi[31].

Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chma ma‘no hosil bo‘lishining konversiyaga yondosh holatlari mavjud. Adektivatsiya ba‘zi hollarda sinekdoxa bilan ham qorishtirilib yuborilishi mumkin. Ma‘lumki, sinekdoxalarda butun nomi bilan asosiy belgisi hisoblangan bo‘lgani ham atash hodisasi mavjud. Adekvatsiya ham, ko‘p hollarda narsaning nomi bilan uning asosiy belgisini atash natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, turkiy tillarda rang nomlari uncha taraqqiy etmaganligi ot turkumiga oid so‘zlarning rang bildiruvchi sifatlarga ko‘chishi uchun sabab bo‘lib

kelmoqda. Xuddi shu yo‘l bilan gul nomini bildiruvchi gunafsha so‘zi ham sifatga ko‘chgan, ya’ni gunafsha so‘zi mazkur gulga xos rangni ifodalovchi ma’noga ham ega. Misol tariqasida, Mehrixon stakandan gunafsha olib, erining dimog‘iga tutdi (S.Ahmad). Bu yerning toshlari mayda, qum aralash bo‘lib, sariq, gunafsha, qizil gullar va giyohlarga boy (H. Nazir) [21].

Bu misolda gunafsha o‘simligi nomi bilan uning rangi ham atalgan. Shu jihatdan bu hodisa sinekdoxaga o‘xshab ketishi mumkin. Chunki rang shu rangga oid bo‘lgan narsaning qismidir. Xuddi shu hodisaga o‘xshagan o‘sma so‘zidan ko‘chma ma’noning hosil bo‘lishi sinekdoxaga kiritiladi. Chunki o‘sma so‘zi o‘simlikni bildiradi, yana o‘sha o‘simlikdan siqib olingan rangli suyuqlikni ham ifoda etadi. Masalan, *o‘sma qo‘ymoq, yaxshi qoladigan o‘sma* kabilardir. Mazkur suyuqlik o‘sma o‘simligining tarkibi – qismidir. Ammo gunafsha so‘zi yuqoridagi ikki ma’noga ega bo‘lgani bilan, u sinekdoxani yuzaga keltiradi deb bo‘lmaydi. Chunki rangli suyuqlik o‘simlikning tarkibi – qismi, shuning uchun o‘sma so‘zi hisobida sinekdoxa yuzaga kelgan; ammo rang esa gulning (har qanday narsaning ham) tarkibi – qismi bo‘la olmaydi. Shu tufayli gunafsha so‘zi hisobida sinekdoxa yuzaga kelmagan.

Bu hodisalarning yana boshqa tub farqlari ham mavjud. Sinekdohalarda butunning nomi bilan atalgan bo‘lak hamma vaqt o‘sha butunning mantiqiy bir qismi bo‘lishi shart. Masalan, yuqorida qayd etilgan rangli suyuqlik hech vaqt o‘sma o‘simligidan boshqa narsaning qismi sifatida qaralmaydi. Adektivatsiyada esa rang biror narsaning nomi bilan atalgan, har qanday narsaning ham shunday rangi bo‘lsa, uni ifodalayveradi. Masalan, gunafsha nur, gunafsha siyoh va boshqalar. Shuning o‘zi ham narsa va uning belgisi, narsa va uning qismi emasligini tasdiqlovchi dalildir[30].

Narsa nomi bilan uning rangini atash sinekdoxa bo‘la olmaganidan keyin, turgan gapki, narsa nomi bilan uning har qanday belgisini atash ham sinekdoxa bo‘lishi mumkin emas. Masalan, tulki odam, fil bola, lochin yigit, sher jangchi kabi birikmalardagi tulki, fil, sher kabi so‘zlar vazifasi o‘zgarishi nazarda tutilishi

kerak. Tildagi mazkur hodisa ham sintaktik adektivatsiyaga xosdir. Demak u ko‘chma ma’no hosil qiluvchi sinekdoxa bilan hech qanday aloqaga ega emas, leksik ma’no hosil qilmaydi va polisemantik so‘zning vujudga kelishi uchun ham rol o‘ynamaydi.

Narsadan uning belgisiga nomning ko‘chishi kabi belgisidan narsaga nomning ko‘chishi, ya’ni sifat substantivatsiyasi ham sinekdoxaga teng emas. Shuningdek, kishi va narsalarni tashqi belgi, kasalliklari va anormatik holatlari nomi bilan atash ham shunga o‘xshash hodisa deb qaralmog‘i lozim. Huddi shu nuqtai nazardan, T. Aliqulovning Poetik sinekdoxa haqida fikr yuritib, “xarakterli belgisi nomi shaxsni ifodalaydi”, degan fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki belgisi nomi bilan narsa yoki shaxsni atash tilshunoslikda sintaktik substantivatsiya hodisasi deb qaraladi. Sintaktik substantivatsiya natijasida esa yangi leksik ma’no hosil bo‘lmaydi. Misol uchun, cho‘loq, tirtiq, g‘ilay kabi sifatlar bilan kishini atashda ular yangi ma’no bermaydi. Belgi mansub bo‘lgan narsa yoki kimsa esa nutq konteksti yoki sharoitidan mantiqan anglashiladi. Demak, sintaktik substantivatsiya yangi leksik ma’no hosil bo‘lishi va polisemiyalarning yuzaga kelishi bilan ham mutlaqo aloqasi yo‘q.

Kinoya - so‘zlarning aks ma’noda qo‘llash hodisasi. Bunday ko‘chishlar yozuvda qo‘shirnoqqa olinadi. Masalan: Shunaqa “do‘stlar”ning kamroq bo‘lgani ma’qul[51]. Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishi - narsalarning bajaradigan vazifasining o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chish hodisasi. Ma’noning bunday ko‘chishi metaforadagi kabi o‘xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta’sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o‘q, siyoh, qalam kabi so‘zlarning ma’nolaridagi ko‘chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan o‘xshashlikka asoslangan.

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Grafritli yozuv quroli paydo bo'lgandan so'ng, uni karandash qalam deb, keyin esa to'g'ridan to'g'ri qalam deb atay berganlar. O'q - yoy o'qi; o'q - miltiq o'qi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o'xshashdir).

1.2. Ko'p ma'nolilikni o'rgatishga qaratilgan adabiyotlar tahlili

Tildagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma'noni ifoda etuvchi o'zlar bir ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan, kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g'oya, mimika, qobiliyat, fonema va boshqalar.

So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni, gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin. Masalan, pasaymoq so'zi gapdan tashqarida olinganda erga tomon yaqinlashmoq ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida esa bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi kabi boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun ko'p ma'noli so'z sanaladi. Demak, nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi. Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z taraqqiyoti ma'no tufayli ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zlarda 2 xil ma'no farqlanadi: 1) bosh (asl, o'z) ma'no; 2) yasama (ko'chma) ma'no. Bosh ma'no so'zning nutqdan tashqarida ifodalagan ma'nosi bo'lib, u boshqa ma'nolarning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Yasama ma'no bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, og'iz so'zining bosh ma'nosi insonning tana a'zosi, g'orning og'zi, qopning og'zi yasama ma'no. So'zning yasama ma'nosi gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'liq holda anglashiladi[29].

Leksema bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Maktab, chumchuq, javon so'zlari bir ma'noni bildirgani uchun bir ma'noli so'z deyiladi. Bir ma'noli so'zlar monosemantik so'zlar deb ham yuritiladi. Nutq jarayonida birdan ortiq ma'no bildiradigan so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan, quloq, bosh, ko'z so'zlari ko'p ma'noli so'z:

Tildagi so'zlarning ancha qismi ko'p ma'noli, chunki kishi o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lgan tushunchaning har biri uchun alohida – alohida so'z qo'llayveradigan bo'lsa, uning soni o'ta ko'payib ketib, xotirada saqlash mumkin bo'lmay qoladi. Natijada tildan foydalanish qiyinlashib, u sekin – asta yaroqsiz holga kelib qoladi[52].

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llaniluvchi ko'p ma'noli yoki polisemantik so'z, ko'p ma'nolilik hodisasi esa polisemiya deyiladi. Polisemiya grekcha poli – “ko'p”, semio – “ma'no” so'zidan olingan bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (grekcha mono – “bir”, semio – “ma'no”) ga zidlanadi.

Ko'p ma'noli so'z qancha ma'no bildirmasin, baribir o'sha predmet, hodisa, harakat orasida aloqa, umumiy belgi mavjud bo'lishi shart. Masalan, etak so'zi uch predmetni anglatadi, ammo ular orasidagi o'xshashlikka asoslangan umumiy (“past qism”) belgisi mavjudligi bir-biri bilan bog'lab turadi. Solishtiring:

Tog'ning etagi, ko'ylakning etagi. Ko'p ma'noli so'zda ma'no qancha bo'lsa ham, u bir so'z hisoblanaveradi. Ko'chma ma'no nutq tarkibida boshqa so'z bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, so'z nutq tarkibidan chiqarilganda o'z ma'nosi qoladi.

Har qanday ko'p ma'noli so'z gapning ichida faqat bir ma'noni anglatadi. Chunki bunda so'zlovchi bir ma'noni nazarda tutadi va gapdagi qo'shni so'z ham boshqa ma'noni yuzaga chiqarmaydi[49].

Ko'p ma'noli so'zning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

Tildagi har qanday soʻz paydo boʻlgan paytda bir maʼnoni, keyinchalik esa koʻp maʼnoni anglatib qolishi mumkin. Baʼzan buning aksi yuz beradi. Demak, soʻz maʼnosi doimiy taraqqiyotda boʻladi, oʻzgarib turadi. Vatan soʻzi dastlab, “tugʻilgan joy” maʼnosini anglatgan. Bugungi kunda u respublika, davlat maʼnosini ham anglatadi. Bunday holni hozirgi oʻzbek tilidagi burchak, kecha, yutuq, boshlangʻich kabi qator soʻzlarda ham koʻrish mumkin.

Taʼlim jarayonida ona tili darslaridagi asosiy eʼtibor talabalar ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratiladi. Mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, oʻz fikr-mulohazalarini erkin, taʼsirchan yetkazib berishda oʻzbek tili, leksikologiya va lingvistika kabi fanlarning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir.

Tilshunoslikning “Leksikologiya” boʻlimi soʻz va uning maʼnodoshlarini oʻrganish bilan shugʻullanar ekan, ushbu boʻlim talabaning soʻz boyligini oshirish va boyitish boʻyicha katta imkoniyatlarga egadir[39].

Leksikologiyani oʻrganish jarayonida soʻzning grammatik hamda lugʻaviy, oʻz va koʻchma maʼnolari, bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar, umumxalq koʻp ishlatadigan va kam ishlatadigan soʻzlar, tarixiy soʻzlar, dialektizimlar, neologizmlar, kasb-hunarga oid soʻzlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi[41].

Talabalar nutqining goʻzalligi, izchilligi, taʼsirchanligini oshirishda koʻchma maʼnoli soʻzlarning oʻrni va ahamiyati beqiyos ekanligini inobatga olgan holda oʻzbek tili oʻqitish jarayonida dasturlar, soʻz va uning koʻchma maʼnolari, maʼno koʻchish turlarini oʻqitish bilan bogʻliq boʻlgan mavzular, hamda darsliklarda ushbu mavzuga tegishli boʻlgan mashq va topshiriqlar oʻrganib chiqildi.

Shuningdek, ushbu DTSda 5-sinf oʻquvchilari “Leksikologiya” boʻlimini oʻrganar ekanlar, ushbu boʻlimda soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi, soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolarini qiyoslash, berilgan soʻz birikmalarida soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini aniqlay olishlari lozim boʻladi[21]. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari yuzasidan xulosa chiqarib, nasriy va sheʼriy matnlarni oʻqish davomida

undan soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini aniqlay olishlari, soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnolarida qoʻllab gaplar tuza olish malakasini egallagan boʻlishi kerak.

Maʼlumki, ona tili taʼlimi tub islohatlarni boshidan kechirdi. Taʼlim mazmuni tamomila oʻzgardi. Zero, maktab ona tili taʼlimining maqsadi oʻquvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ekan, maktabda ona tilini oʻqitishda uzundanuzoq qoidalarni yodlatishdan voz kechilib, asosiy diqqat-eʼtibor oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqini shakllantirish masalalariga qaratilishi davr taqozosidir[18]. “Maktabda ona tili taʼlimining bosh maqsadi - deb qayd qilingan ona tili taʼlimi konsepsiyasida, – oʻquvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan, nutq jarayonida samarali va oʻrinli foydalanish koʻnikmalarini turlicha yoʻsin va shakllarda ifodalash omili masalalarini hosil qilishdan iborat”.

Demak, ona tili mashgʻulotlarida nutqning asosiy xomashyosi soʻz ustida ishlash, oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshirish, soʻzdan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish, umuman oʻquvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda taʼlim samaradorligini belgilovchi qulay metod, vosita va usullarni toʻgʻri belgilay olish – ona tili taʼlimi oldida turgan muhim, dolzarb vazifadir.

Biz bolani ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga oʻrgatmas ekanmiz, mustaqil Oʻzbekistonning “oʻziga xos, oʻziga mos” yoʻldan borishiga sabab boʻladigan, milliy urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanayotgan yoshlarimizga toʻgʻri taʼlim-tarbiya bera olmaymiz. Bu narsalarni eng avvalo, har bir pedagogning ish rejasida, dasturlarida oʻz aksini topishi lozim[20].

Ona tili darslari oldiga qoʻyiladigan vazifalar va ularni amalga oshirish yoʻllari, har qanday mukammal dastur asosida yaratilgan takomillashgan darslik, samarador usullar bilan talabalar ongiga singdirilgandagina kutilgan natija berish mumkin.

Yangi pedagogik texnologiyalarga muvofiq talaba ona tili materiallarini tayyor holda oʻzlashtirmay, uni izlashi, ijodiy faoliyat koʻrsatishi zarur.

Tilshunoslikda soʻzning koʻp maʼnolilik xususiyatini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki koʻp maʼnoli soʻzlar turli usullar vositasida maʼno koʻchishi orqali oʻz maʼnosidan boshqa maʼnolar ifodalagan holda tilning ifoda imkoniyatlarini boyishida muhim ahamiyat kasb etadi[14].

Soʻz ustida ishlash jarayoni murakkab va koʻp qirrali jarayon hisoblanadi. Shunga erishish lozimki, talaba yangi va notanish soʻzga eʼtiborsiz boʻlmasin. Uning maʼnosini anglashga harakat qiladigan boʻlsin.

Oʻquvchilar leksikologiya boʻlimi bilan 5-sinfda tanishadilar. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar tilimizning leksik boyligi. Ulardan qancha oʻrinli foydalanilsa, fikrni ravon, goʻzal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, soʻzdan toʻgʻri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi[10]. Albatta, hamma bilimning asosida takrorlash va koʻnikma yotadi. Koʻnikma va malakalarni shakllantirish uchun esa 5- sinf darsligida ham qator topshiriq va mashqlar berilgan. Shunday ekan, mashgʻulotlarni avvalambor, berilgan topshiriqlarni bajarishdan boshlaymiz:

475-mashq. Tuyuqni oʻqing, yoz soʻzlarining qanday maʼnolarda kelayotganini tushuntiring. Har biriga bittadan gap tuzing.

Taqdirni oʻz qoʻling bilan yoz,

Mehring bilan qishni qilgin yoz,

Erkinlikning osmonida uch,

Maqsad sari qanotingni yoz.

Birinchi misrada “yoz” soʻzi qalam yoki ruchka bilan yozmoq, qoralamoq maʼnosida ishlatilgan: Mahbuba diktantni xatolarsiz yozar ekan.

Ikkinchi misrada “yoz” soʻzi yil fasllaridan birining nomi sifatida ishlatilgan: Bu yil yoz shunday issiq boʻldiki, koʻchaga chiqqing kelmaydi.

Toʻrtinchi misrada esa “yoz” soʻzi qanotni ochmoq, parvozgga shaylanmoq maʼnosida ishlatilgan: Burgut osmonda qanotlarini keng yozgan holatda uchar edi.

Ushbu topshiriqni oʻquvchilarga mavzuni tushuntirib boʻlgandan keyin bajarishga ruxsat beriladi. Ushbu topshiriqni bajarishda oʻquvchi dastlab tuyuqning

ma'nosini yaxshi tushunishi kerak. Shundan keyin "yoz" so'zini matn tarkibidan ajratib oladi va uning ma'nosini izohlaydi. Shunda so'zning o'z ma'nosi aniq bo'ladi. Shunda o'qituvchi o'quvchilarga bu so'zning ma'nolari batafsilroq tushuntirib beriladi[11].

476-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'ying va ko'chiring. Nima uchun aynan shu so'zni tanlaganingizni izohlang.

Uning dastxati ... (chiroyli, go'zal, suluv) ekan.

Uning dastxati chiroyli ekan. (Chunki go'zal, suluv so'zlari faqatgina shaxsga nisbatan ishlatiladi).

Yuqoridagi mashqni o'quvchilarga "Birgalikda o'rganamiz" usulidan foydalangan holda bajartirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda talabalar ikki guruhga ajratiladi va har ikki guruh mashqni bajaradi hamda nima uchun shu so'zlarni tanlaganliklarini oq qog'ozga yozib o'qituvchiga topshiradilar. Shundan keyin guruhdan bir kishi javoblarni aytadi. O'qituvchi g'olib guruhni aniqlaydi va rag'batlantiradi. Bunda talabalar birgalikda, birlashib harakat qilishni, birbirlarining fikrlarini hurmat qilishni o'rganadilar[42].

477-mashq. Quyidagi so'z birikmalari yordamida gaplar tuzing, ma'nolarini tushuntiring.

Ko'chaning boshi – Muazzamning buvisi ko'chaning boshidagi uyda yashaydi. Zumrad bahor – Bahor fasli nima sababdan "zumrad bahor" deyilishini bilasizmi? Kumush qish – Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati. Po'lat iroda – Bu alamga bardosh berish uchun po'lat iroda sohibi bo'lmoq kerak.

Ushbu mashqni bajarishda "O'ylang – juftlikda ishleng – fikr almashing" texnikasidan foydalansa bo'ladi. Bunda guruhdagi talabalar bir necha juftliklarga ajraladilar. Shundan so'ng o'qituvchi mashqni shartlari bilan talabalarni tanishtiradi: oldin o'ylab chiqish, so'ng qisqa javoblar yozish tartibida[13]. Talabalar juftliklarga bo'linib, bir- biri bilan fikr almashadilar va ikkala javobni mujassam etgan umumiy javobni ishlab chiqishga harakat qiladi. O'qituvchi bir

necha juftliklarga o'ttiz sekund davomida auditoriyaga o'z ishining qisqa yakunini ifodalab berishni taklif qiladi.


Leksikologiya bo'limini o'tishda ko'p ma'noli va bir ma'noli so'zlar talabalarning so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Topshiriq orqali o'qituvchi talabalar nutqini ko'p ma'noli so'zlar bilan boyitishga erishadi. Bu usul talabalarni tez fikrlashga va diqqatlarini bir joyga jamlab olishlariga yordam beradi. Guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantiradi[15].

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonlini tashkil qiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin[17]. Masalan: pasaymoq so'zi gapdan tashqarida olinganda yerga tomon yaqinlashmoq ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi kabi boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun ko'p ma'noli so'zlar sanaladi. Demak nutqdan tashqarida bir ma'no, nutqdan tashqarida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyildi. Masalan: ko'z so'zi.



Oliy o‘quv yurtlarida polisemiyaning o‘rgatishda asosiy adabiyotlardan biri sifatida qo‘llanilib kelinayotgan Miraziz Mirtojiyevning “O‘zbek tilida polisemiya” asari ham ko‘p ma’nolilikni o‘rgatishda muhim hisoblanadi[24]. Ushbu darslikda ko‘p ma’nolilik va uning turli jihatlarda namoyon bo‘lishi kabi mavzular yoritib berilgan. Polisemiyaning yuzaga kelishi, uning sinflarga bo‘linishi, so‘z strukturasi kabilar asosiy mavzu sifatida kiritilgan.

II BOB. KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNI O‘RGATISH METODIKASI

2.1. O‘zbek leksik birliklaridagi ko‘p ma’nolilikning qurilishi

So‘zni, lug‘aviy birlikni, lug‘aviy ma’nolarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Lug‘aviy ma’noga ega ekanligi bilan so‘z lisoniy qadrga ega. Lug‘aviy ma’nolar bo‘lmasa, so‘z haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Darsligingizning oldingi sahifalarida ham aytilganidek, lug‘aviy ma’no – so‘zning mazmun jabhasiga xos tushuncha. So‘z vositasida nomlangan narsa-hodisalar va ularning belgi-xususiyatlari lug‘aviy ma’no tufayli anglashiladi. Demak, lug‘aviy ma’no so‘zning nimanidir anglatishidir[26]. Masalan, “kitob” so‘zi orqali “nima haqdadir ma’lumot bitilgan va shu ma’lumotni o‘qish orqali xabardor qilishga xizmat

qiluvchi predmet” anglashiladi. Anglashilgan ana shu predmet (narsa) “kitob” so‘zining lug‘aviy ma’nosidir[22].

So‘zlar, ya’ni lug‘aviy birliklarning semantik (mazmuniy) jabhasi bir va birdan ortiq lug‘aviy ma’nolardan tashkil topishi mumkin. So‘z mazmun qurilishida lug‘aviy ma’no bitta bo‘lsa, u bir ma’noli yoki monosemantik, bittadan ko‘p bo‘lsa, ko‘p ma’noli yoki polisemantik lug‘aviy birlik (so‘z) deb ataladi. Lug‘aviy ma’nolar o‘zaro munosabatdosh bo‘ladi. So‘z anglatgan ma’nolar, ularning boshqa so‘z va ularning ma’nolari munosabati asosida leksikaning ifoda va mazmun jabhalarida turlicha “qurilma”lar vujudga keladi. Bulardan biri lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilma (leksik-semantik mikroqurilma) deb ataladi.

Lug‘aviy sath birliklarining ifoda va mazmun jabhasiga xos mikroqurilmasi lug‘aviy ko‘p ma’nolilik (leksik polisemiya) orqali vujudga keladi. Mikroqurilma atamasi ham ikki tushunchaga nisbatan ishlatiladi: a) ko‘p ma’nolilikning o‘zi; b) ko‘p ma’nolilikning voqelanish jarayonlari[34]. Shuning uchun ham mikroqurilma deyilganda, polisemantik leksema nominativ ma’nolarining o‘zaro munosabati, ularning avtonom tarzda alohida-alohida va birgalikda qo‘llanishi tushuniladi.

Lug‘aviy ko‘p ma’nolilik so‘z hayotining dinamik xarakteri tufayli sodir bo‘ladi. So‘z hayotining dinamik xarakteri deyilganda, uning (so‘zning) turli xil sotsial sharoitlarda, turlicha maqsadlarda qo‘llanilishi va ularning nolisoniy imkoniyatlari tushuniladi. Bunday lisoniy vaziyat so‘zlardagi bosh va nominativ ma’nolarning ko‘chma ma’nolar ham kasb etishi imkoniyati (jarayoni) bilan bog‘lanadi. So‘zlarning o‘z (nominativ) ma’nolaridan tashqari, ko‘chma ma’nolarda ham qo‘llana olish imkoniyati ko‘p ma’nolilikka yo‘l ochadi: ko‘p ma’nolilik zaminida ko‘chma ma’nolar turadi.

Ko‘p ma’nolilik tufayli lug‘aviy sathga xos shakl va mazmun nomutanosibli (asimmetriyasi)ning paradigmatic jabhasi vujudga keladi. Ko‘p ma’nolilik paradigmaticasi va uning tizimi (paradigmatic qator, paradigmatic uya) so‘z semantik qamrovidagi bir necha mustaqil ma’nolar (sememalar)dan tarkib topadi. Paradigmatic qatorni tashkil etgan ma’nolarning har biri shu so‘zning nominativ

ma'nolari xarakterini kasb etadi va ular leksemaning alohida-alohida lug'aviymazmuniy varianti (LMV) sifatida amal qiladi[27]. Leksemaning bu lug'aviy-mazmuniy variantlari o'zaro muayyan bir umumlashtiruvchi sema (integral)ga ko'ra yaqinlikka, mushtaraklikka ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, polisemantik leksemaning har bir lug'aviymazmuniy varianti boshqasidan ularning o'zigagina tegishli bo'lgan differensial (farqlovchi) semasiga ko'ra ajralib turadi. Masalan, polisemantik "bosh" leksemasining muayyan denotatsiyaga asoslangan nominativ ma'nosi – bu "inson yoki hayvon organizmining gavadan yuqori qismi"dir. Bosh leksemasining ana shu ma'nosi zamirida uning bir qator lug'aviy-mazmuniy variantlari vujudga kelgan: 1) yo'lning boshi; 2) tog'ning boshi; 3) tashvishning boshi; 4) g'alabaning boshi; 5) janjalning boshi; 6) ariqning boshi; 7) ma'ruzaning boshi; 8) mashg'ulotning boshi; 9) bosh mutaxassis; 10) bosh muharrir; 11) to'y boshi; 12) yurt boshi va boshqalar. Bosh leksemasining nolisoniy nisbati asosiga ko'ra, bu miqdor yana davom etishi mumkin. Shu miqdorning o'ziyoq "bosh" polisemantik leksemasining o'n ikki lug'aviy-mazmuniy variantda 43 voqelanganligiga ishoradir[54]. Bu lug'aviy-mazmuniy variantlarning har biri "bosh" polisemantik leksemasining alohida-alohida lisoniy qiymat kasb etuvchi sememalaridir: o'n ikki lug'aviy-mazmuniy variant – o'n ikki semema.

Demak, lug'aviy ko'p ma'nolilikda polisemantik leksema (so'z)ning mazmun qurilishida birdan ortiq lug'aviy-mazmuniy variant (LMV) bo'ladi. LMVlar biri boshqasidan so'z ma'nosining nimagadir nisbatlanishi, nimanidir bildirishi jihatidan farq qiladi, biroq ular shakl jihatdan ham, talaffuz jihatdan ham farq qilmaydi. Lug'aviy-mazmuniy variantlarga xos bu xususiyat ularning lug'aviy omonimiyadan farqlanishiga monelik qilmaydi, albatta. Chunki lug'aviy-mazmuniy variantlar, miqdori qancha bo'lishidan qat'iy nazar, bir so'zdir va shu so'zning mazmun qurilishi bilan bog'liq xususiyatidir (shuning uchun ko'p ma'nolilikka nisbatan mikroqurilma atamasi ishlatiladi). Omonimlarda esa, ma'no va so'z (leksema) miqdoran teng keladi. Omonimiya uyasini tashkil etgan har bir lug'aviy birlik (so'z, leksema) o'z doirasida bir qancha Lug'aviy-mazmuniy

variantlardan tarkib topgan bo'lishi mumkin (bu haqda darslikning "Lug'aviy omonimiya" bahsida so'z yuritiladi) [53].

Lug'aviy-mazmuniy variantlarning ko'pligi, birdan ortiqligi, faqat polisemantik (ko'p ma'noli) leksemalardagina bo'ladi. Bir ma'noli leksemalar bir Lug'aviy-mazmuniy variantga teng keladi – ularda shakl va mazmun muvofiqligi (mutanosibli) mavjud. Bunday xususiyat termin (atama)larga xosdir. Termin (atama)larda odatda va ko'pincha bir leksema (so'z) bir Lug'aviy-mazmuniy variantga teng keladi. Masalan, radio, televizor, samolyot; fonema, bo'g'in; janr, ballada, kino, telefon, matn, ocherk, sintaksis va boshqalar.

Lug'aviy-mazmuniy variantlar ham ifoda va mazmun jabhalariga ega bo'lgan ishora, ramzlardir[55]. Bundan seziladiki, lug'aviy ko'p ma'nolilikda bir polisemantik leksema doirasida umumlashtiruvchi (integral), ya'ni mushtarak semaga ega bo'lgan birdan ortiq ishora, ramzlar tutashadi. Demak, polisemantik leksema semantik jihatdan o'zaro bog'liqlikdagi lug'aviy-mazmuniy variantlar (Lug'aviy-mazmuniy variantlar) guruhidir. Ayni ana shu xususiyat lug'aviy ko'p ma'nolilikning – polisemantik leksemalarning – til lug'aviy tizimi (sistemi)ga xos mikroqurilma ekanligini belgilovchi bosh omildir.

Polisemantik leksemalar mustaqil so'z turkumlaridan ot, sifat va fe'l doirasida ko'p uchraydi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "yo'qotmoq" fe'lining quyidagi ma'nolari qayd etilgan[47]: 1. Yo'q qilmoq. 2. Muayyan narsaga monelik qiladigan to'siqni olib tashlash, barham berish (turmushimizda bir qadar isloh yuzaga chiqsin, bema'ni ishlarni yo'qotaylik. Oybek). 3. Ixtiyorsiz holda tegishli narsasini yo'q qilmoq, nazar-e'tibordan qochirmoq (Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. Maqol). 4. Ajralmoq, mahrum bo'lmoq, ayrilmoq, judo bo'lmoq. 5. Kuchdan qolmoq, yo'qqa chiqmoq va b. Demak, bu o'rinda "yo'qotmoq" polisemantik leksemasining olti lug'aviy-mazmuniy varianti (Lug'aviy-mazmuniy variant) va ularning ma'nolari qayd etilgan[50].

Bulardan tashqari, "yo'qolmoq" so'zi ishtirokida aqlini yo'qotmoq, esini yo'qotmoq, hushini yo'qotmoq, gapini yo'qotmoq, o'zini yo'qotmoq singari

frazeologik iboralar ham hosil bo'lganki, ular bu so'zning ko'chma ma'nolariga asoslangan[56].

Lug'aviy ko'p ma'nolilik lug'aviy ko'p vazifalilikka ham o'xshaydi. Biroq ular o'zaro farqli ikki xil tushuncha, ikki xil boshqaboshqa hodisalardir. Ko'p ma'nolilik – so'zning obyektiv olamdagi rang-barang narsalarni anglatish boyligi, imkoniyati. Masalan, “bet” so'zi kishi yuzini, qog'oz sahifasini, ko'cha chetini, oqar suv yuza sathini, inson izzatini va hokazolarni o'rni bilan anglatadi. Bu, albatta, u tarkibida kelgan gap bilan bog'liq. Shu so'z imkoniyatlariga ko'ra turli gaplar uchun saylanadi va u turli so'zlar bilan aloqaga kirishadi[36].

So'zning, lug'aviy birlikning, ko'p vazifaliligi esa, tamoman boshqa narsa. Bunda lug'aviy birlik (so'z) ma'lum turkumga xos bo'lib, qo'llanishida boshqa turkum vazifasini ham hech qanday tashqi (tovush) o'zgarishsiz bajaraverishidir. Bu hodisa turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida ko'p tarqalgan. Masalan, oltin so'zi o'zbek tilida ot turkumiga mansub: Hamid ...bir qo'lidan ikkinchi qo'lga oltinlarni sanab tushira berdi (A.Qodiriy). Bu so'z “Oltin piyolada bollar ichilar” (“Yodgor” dostonidan) gapida otga (piyolada) bog'lanib, sifat vazifasida kelgan[]. Keyingi gapda ishlatilgan “oltin” so'zi, oldingi misoldagidek narsa-buyumning o'zini emas, balki boshqa narsa-buyumning materialiga aloqador belgixususiyatini bildirgan.

O'zbek tilida otlarning sifat vazifasida kelishi faol lisoniy jarayondir. Aslida ot turkumiga kiruvchi nilufar, kumush, yov, gunoh, loy, temir, tosh, g'isht, taxta, yog'och, uy, o'g'il, qiz, xotin, kampir, hokim va hokazo lug'aviy birliklar sifat vazifasida kelib, ko'p vazifalilik xususiyatiga ega bo'ladi.

Demak, misollar tabiatidan ma'lum bo'ladiki, lug'aviy birliklarning ko'p vazifaliligi ularning ko'p ma'noliligidan farq qiladi: ko'p ma'nolilik so'zlarning atash semalari va ularning sintagmatik qurshovda turlicha voqelanishi bilan bog'lansa, ko'p vazifalilik ularning vazifa semalari va ularning sintagmatik qurshovda voqelanishi bilan aloqador bo'ladi.

Lug‘aviy birliklarning ko‘p vazifaliligi faqat ot turkumiga qarashli lug‘aviy birliklar bilan cheklanmaydi. Sifat, son, olmosh turkumlariga qarashli lug‘aviy birliklarda ham bu xususiyat mavjud. Masalan, “To‘yning qizig‘i shunda-da, – jahl bilan qichqirdi Yo‘lchi” (Oybek) gapida asli sifat turkumiga mansub “qiziq” so‘zi ot vazifasida qo‘llangan[48].

“Talabalardan beshtagina keldi” gapida esa, son turkumiga qarashli “besh” so‘zi ravish vazifasida kelgan. “Mashinaga undan besh qop ortildi” gapida ot turkumiga xos “qop” so‘zi ravish vazifasini bajargan.

Lug‘aviy ko‘p ma‘nolilik – leksika sathining eng kichik sistemasi, sistemalar ichidagi sistemasi – tagtizimidir. U lug‘aviymazmuniy ierarxiyaning eng quyi pog‘onasidagi boshlovchi mikrotizimdir.

2.2. Nofilologik talabalarga ko‘p ma‘noli so‘zlarni o‘rgatish orqali kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirish metodlari

O‘zbek tili o‘qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchilari o‘talabadagi og‘zaki va yozma nutqning sifatini oshirish masalasiga alohida e‘tiborni qaratib kelmoqdalar. Shu asosda o‘zbek tili o‘qituvchilari bugungi kunda talabalarning nutq madaniyatini oshirish, ijodiy tafakkurni hosil qilish, nutqning ta‘sirchanligi va jozibadorligini oshirish ustida bir qancha zamonaviy interfaol usullarni qo‘llagan holda o‘z darslarini tashkil etishmoqda[43].

Talabalarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish nutq madaniyatini rivojlantirish asnosida amalga oshirilgani ma‘qul. Bu ish ularni ijodga undash, so‘z va so‘z shakllarining badiiy qiymat yaratishdagi jihatlarini o‘rgatish tariqasida tashkil etiladi. Ko‘p ma‘nolilik mavzusi o‘rganilayotganda ham o‘qituvchi ushbu vositalarga talabaning nutq madaniyatini va ta‘sirchanligini oshiruvchi vosita sifatida qarashi lozim. Aynan mana shu vositalarning og‘zaki va yozma nutqdagi o‘rni va ta‘sirini aniq sezgan talaba ma‘no ko‘chish yo‘llarining badiiy matnlardagi o‘rni va ahamiyatini tushunib, uni o‘z nutqida qo‘llash malakasini egallaydi.

Quyida biz ana shu maqsadni amalga oshirish uchun bir nechta usullarni tavsiya etmoqchimiz.

Odatda, soʻz boyligini oshirish va nutqni oʻstirishga qaratilgan mashqlarda asosiy eʼtibor talabalarning lugʻat boyligini yangi soʻzlar bilan boyitish, ushbu soʻzlarni oʻz nutqida oʻrinli qoʻllay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Lekin oʻzbek tili oʻqitishda talabalarning lugʻatini yangi soʻzlar bilan boyitish bilan birga ushbu soʻzlardan qanday foydalanish, nutqning taʼsirchanligini oshiruvchi koʻchma maʼnodagi soʻzlarni oʻrinli qoʻllay olish malakasini shakllantirish alohida yondashuvni talab etadi[45].

Maʼno koʻchirish turlari mavzusi oʻtilayotganda ham oʻqituvchi talabalarning eʼtiborini asosan ushbu vositalarning nutqning taʼsirchanligini oshirishdagi oʻrniga qaratishi kerak boʻladi. Chunki talaba nutqining jozibador va taʼsirchan boʻlishida soʻzlardagi maʼno koʻchish yoʻllarini oʻrganish va uni oʻz nutqida qoʻllay olish malakasini rivojlantirish juda muhimdir. Bundan tashqari, nutqning taʼsirchanligi nutqning kommunikativligiga oʻz taʼsirini koʻrsatish bilan birga barcha tayanch kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu usullar qiyinchilik darajasiga koʻra oʻsib borish tartibida berib borilishi maqsadga muvofiqdir.

“KREATIV TALABA” USULI

Ushbu usulda talabalar uchun toʻliq boʻlmagan gaplar beriladi. Talabalardan ushbu gaplardagi boʻshliqni iboralar bilan toʻldirishi va ushbu iboralarda maʼno koʻchish hodisasining qaysi turi ishtirok etayotganligini izohlashi soʻraladi.

1. Sekinroq gapiring, aylanay, ... (birov eshitib qolmasin maʼnosida) J: devorning ham qulogʻi bor.
2. Baʼzan davon oshishingga ... (ishonmay, qoʻrqib ketasan) J: koʻzing yetmay, yuraging orqaga tortib ketadi.
3. Kechagi futbol bahsida Oʻzbekistonning ... (yutdi) J: qoʻli baland keldi.

4. Xushxabarni Solijonning onasiga yetkazish uchun (tez yugurdi). J: oyoq bo‘lib yugurdim.

“IZOHLI LUG‘AT ORQALI ISHLASH” USULI

Talabalar ikki yoki undan ortiq gurularga bo‘linishadi, So‘ng guruhlarga O‘zbek tilining izohli lug‘atidan foydalanib gul, to‘g‘ri, kumush, qimmat, qadam, issiq kabi so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma‘nolarini aniqlash hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlash topshirig‘i beriladi[19].

Talabalar vazifani quyidagicha bajarishlari mumkin.

1. gul	<p>gul (1)</p> <p>1. Yopiqurug‘li o‘simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan, gulband, kosachabarglar, toj barglar, changchilar va urug‘chidan iborat qismi.</p> <p>Olma guli. Nok guli. Nurining hovlisidagi gilolar gullagan. Ularning oppoq, ko‘rkam gullari quyosh nurida juda nafis tovlanar. Oybek, Tanlangan asarlar</p> <p>2. Atirgul va umuman ziynat uchun ekiladigan yoki tabiiy, o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar; chechaklar.</p> <p>Pushti gul. Oq gul. Qo‘qon gul. Tikansiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz - hunar. Maqol: Dala yo‘lining ikki tomonidagi bog‘lar tutash gullar bilan qoplangan. Oybek, Tanlangan asarlar: Supalarning oralariga, atrofiga anvoi gullar ekilgan. A. Qahhor, Asror bobo</p> <p>3. Biror narsaga tabiatdagi gullar shaklida chizib, tikib, bosib yoki o‘yib tushirilgan bezak, naqsh; ornament.</p> <p>Tez kunda albomning varaqlari fotosuratlariga va bo‘yoq qalamda chizilgan gullarga bezandi. H. Nazir, Cho‘l havosi. Mehrini esa do‘ppisining gulidan tanidi. Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli</p>
--------	--

	<p>4. ko'chma. Go'zal.</p> <p>Tulni gulga qo'sh. Maqol: Ikkovi ham uzilmagan gul. Oybek, Tanlangan asarlar: Bermagil yovuzlarga bir daqiqa xushnudlik, Gul Vatanning mard o'g'li, ko'kragingni qalqon qil. G'ayratiy</p> <p>5. ko'chma (1-shakl. egalik qo'shimchasi bilan murojaat shakli) Yor, sevikli ayol.</p> <p>Gulim, senga aytar so'zim bor. Maktubimga javob yozmading, dildor, gulim ham bahorim sensan, Gulbahor. M. Alaviya.</p> <p>6. ko'chma (3-shakl. egalik qo'shimchasi bilan) Eng yaxshisi, sarasi; fayz kirituvchisi, qizituvchisi.</p> <p>Yigit (lar)ning guli. Ziyolilarning guli. Shoh qiz, shakar qiz, qizlarning guli, Qoshlaringni ko'rsatgil, men uning quli.S. Ayniy, Doxunda. Yigitali kelin-kuyovning maqsadi, borar manzilini bilsa ham, ularning salomlariga alik olgach, ko'ngil uchun so'radi: - Ha, yigitning guli, yo'lingiz bo'lsin? T. Malik, Ajab dunyo. Fasli bahor. Qo'shnim G'afur G'ulomning ellik yilligi. O'shanda Bulbul Mamedov to'yxonaning guli bo'lgan edi. H. Nazir, Maftuningman, Ozarbayjon.</p> <p>7. etnografik. Bahorda, gullar ochilganda, marhum xotirasiga bag'ishlab uning yiliga qadar o'tkaziladigan marosim.</p> <p>Cholning yostig'i tagidan topilgan pul uni ko'mib kelishgagina yetdi. Hali bu yoqda uchi, yettisi, yigirmasi, fotihaxonligi, shakligi, iftorligi, ikki hayiti, guli, qovoq oshi, qovun-uzumi, yil oshisi, oq solar va hokazolar bor. M. Osim, Tilsiz guvoh[32].</p>
2. to'g'ri	

3. kumush	
4. qimmat	
5. qadam	
6. issiq	

“QIYOSIY TAHLIL” USULI

Diagramma orqali soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnoli soʻzlarga ajratiladi va ularni bir-biriga qiyoslagan holda oʻrganiladi.



“MATN TAHLILI” USULI

Maʼno koʻchish turlari haqidagi nazariy maʼlumot oʻzlashtirilgach, ushbu bilimlarni qay darajada oʻzlashtirilganligini aniqlash maqsadida “**Matn tahlili**” metodidan foydalanish tavsiya etiladi[38]. Talabalar uchun badiiy matn taqdim etiladi va ulardan ushbu matn tarkibida berilgan koʻp maʼnoli soʻzlarni topish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi maʼno koʻchish turlaridan qay biri ishtirok etayotganligini aniqlash soʻraladi.

Matn 1. Xemengueyni o‘qish.

– Aka Xemenguey ham badimga urib ketdi, – dedi buxorolik shoir. – Endi o‘qiyapman Jabron Xali, Folkner, Frishni.

O‘sha kuni uyga keldim. Yana kezib chiqdim o‘zim sevgan Ernst olamlarini.

To‘g‘ri ekan. Badga urishi mumkin ekan hatto Xemenguey ham. Agar o‘z erking ko‘rinsa juda uzoq. Ishonching darz ketsa. Tuyulsa omonat, liqildoq.

Muomalaga o‘rgatar Xemenguey. Olijanob muomalaga. Biz esa tobora yiroqlashib boryapmiz bunday muomaladan. (I.G‘afurov)

Talabalar ushbu matndagi ko‘p ma‘noli so‘zlarni aniqlab, ularning asl va ko‘chma ma‘nolarini tahlil etishlari lozim bo‘ladi.

“BILAG‘ON TALABA” USULI

Darsning yanada qiziqarli bo‘lishi uchun **“Bilag‘on talaba”** o‘yinini tashkil qilish mumkin. Unda guruhdagi uchta qator uchta jamoa sifatida ishtirok etadi. Bu o‘yinni tashkil etish uchun ko‘chma ma‘noda qo‘llash mumkin bo‘lgan uchta so‘z, ya‘ni *gul*, *shirin*, *sovuq* so‘zlari doskaga yozib qo‘yiladi. Har bir guruh vakillari chiqib yozuv taxtasidan o‘zlari uchun ajratilgan joyga shu so‘zlar ishtirok etgan maqollardan yozishi kerak bo‘ladi[46]. Kam vaqt ichida ko‘p maqol topgan talaba topshiriq g‘olibi sanaladi. Qolganlar esa mustaqil ravishda daftarlariga bilganicha maqollardan yozishi shart. Ular ham yuqorida qo‘yilgan shartga amal qilishi lozim.

“ZEHNLI KITOBXON” USULI

Bu usulda talabalarga ko‘p ma‘noli so‘zlar qatnashgan matnlarni izlab topish, matn tarkibida qo‘llangan ko‘p ma‘noli so‘zlar haqida ma‘lumot berish, matnning badiiyligi nimaning hisobiga yuzaga chiqayotganligi haqida axborot berish so‘raladi.

Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar ko‘p ma‘noli so‘zlar ishtirok etgan matnlarni qidirib topish, matn tarkibida ko‘p ma‘noli so‘zlarni qidirish qiyin ekanligi haqidagi xulosaga keladilar. Bu esa o‘z navbatida

yozuvchilardan muayyan bir asarni yaratishda qanday mahorat talab etilishini bilib olishlariga yordam beradi.

Yuqoridagi kabi usullardan foydalanib, o‘tilgan mavzular mustahkamlanib bo‘lingach, oxirgi bosqichda talabalar uchun ko‘p ma’noli so‘zlar qatnashgan ijodiy matn yoki insho yozish topshirig‘i beriladi.

Ko‘rinib turganidek, o‘zbek tili darsidagi har bir mavzuni qiziqarli va talabalar nutq madaniyatiga, hissiy-ta’siriy jihatdan boyishiga ko‘mak beruvchi mashq va topshiriqlarni, turli xil o‘yinlarni tashkillashtirishgan holda olib borish mumkin. Bu esa o‘qituvchidan juda katta ijodkorlik, mahorat talab etadi. Yuqorida biz ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘qitish orqali talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirish va so‘z boyligini oshirishga qaratilgan darslarni “Kreativ talaba” usuli, “Zehnli kitobxon” usuli, “Bilag‘on talaba” usuli, “Matn tahlili” usuli, “Qiyosiy tahlil” usuli, “Izohli lug‘at orqali ishlash” usuli kabi usullar bilan boyitish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tdim.

III BOB. O‘ZBEK TILIDAGI KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHLASHTIRILGANLIK DARAJASINI BAHOLASH

3.1. Ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatish orqali nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar jamlanmasi

Quyida talabalarga ko‘p ma’nolilikka oid bo‘lgan mashqlarni berib o‘tamiz. Avvalambor ularga ko‘p ma’noli so‘zlar haqida quyidagicha tushuntirish beramiz:

Ko‘p ma’nolilik – belgining (so‘z, ibora va boshqalar) bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir nechta ma’noga ega bo‘lishidir. Masalan, “bosh” “tananing bir qismi”,

“mas’ul shaxs” yoki “chiziqning old qismi” ma’nolarini bildirishi mumkin. Metonimiya, metafora, sinekdoxa va kinoya kabi polisemiyaning turlari mavjud[59].

Metonimiya – bu biror narsaga uning atributlari yoki assotsiatsiyalaridan biri bilan murojaat qilish. Masalan, “Qalam qilichdan kuchli”, “yozuv urushdan ko‘ra ko‘proq ta’sir qiladi” degan ma’noni anglatadi[60].

Metafora – bu so‘z yoki iboraning boshqa narsani tasvirlash uchun ishlatilishi. Masalan, “Uning tosh yuragi bor edi” “u mehribon yoki hamdard emas edi” degan ma’noni anglatadi.

Sinekdoxa – biror narsaning bir qismi butun narsaga nisbatan qo‘llanilishi. Misol uchun, “Tirnoqqa zor”, ya’ni “farzani yo‘q” degan ma’noni anglatadi[58].

Kinoya – bu so‘z yoki iboraning ma’nosi odatdagi ma’nosiga qarama-qarshi bo‘lishi. Masalan, “Qanday go‘zal kun!” kuchli yomg‘ir paytida aytilgan, “bu hech qanday go‘zal kun emas” degan ma’noni anglatadi.

Ko‘p ma’nolilik tilshunoslikda muhim tushunchadir, chunki u so‘zlar va iboralar matn va assotsiatsiya orqali qanday ma’no olishini tushunishga yordam beradi.

Mashq 1. Ochiq savol-javob mashqlari (Savollar va javoblar) [44]:

1. Ko‘p ma’noli so‘zga misol keltiring. Javob: 1. Ko‘p ma’noli so‘zlarga “bosh” so‘zi misol bo‘la oladi, bu “tananing bir qismi”, “mas’ul shaxs” yoki “chiziq oldi” ma’nolarini anglatishi mumkin.

2. Matnda ko‘p ma’nolilikning qanday turlari aytilgan? Javob: Matnda tilga olingan polisemiyaning turlari: metonimiya, metafora, sinekdoxa, kinoya.

3. Metonimiyani tushuntiring va misol keltiring. Javob: Metonimiya – biror narsaga uning atributlaridan biri yoki assotsiatsiyasi bilan murojaat qilish. Masalan, “Qalam qilichdan kuchli” iborasi “Yozuv urushdan ko‘ra samaraliroq” degan ma’noni bildiradi.

4. Metafora metonimiyadan nimasi bilan farq qiladi? Misol keltiring. Javob: Metafora boshqa narsani tasvirlash uchun so‘z yoki iboradan foydalanishni o‘z

ichiga oladi. Masalan, “Uning tosh yuragi bor edi” iborasi “mehribon va hamdard emas edi” degan ma’noni bildiradi.

5. Sinekdoxaga ta’rif bering va misol keltiring. Javob: Sinekdoxa – biror narsaning bir qismini butunlikni ifodalash uchun ishlatish. Masalan, “Tirnoqqa zor” iborasi “farzandi yo‘q” degan ma’noni bildiradi.

6. Kinoya nima va u qanday hosil bo‘ladi? Misol keltiring. Kinoya so‘z yoki iboraning ma’nosi odatdagi ma’nosiga qarama-qarshi bo‘lganda yuzaga keladi. Masalan, “Qanday go‘zal kun!” kuchli yomg‘ir paytida istehzoli, chunki bu “bu umuman yaxshi kun emas” degan ma’noni anglatadi.

7. Tilshunoslikda polisemiya nima uchun muhim? Javob: Ko‘p ma’nolilik tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega, chunki u so‘z va iboralarning matn va assotsiatsiyalar orqali qanday ma’no kasb etishini tushunishga yordam beradi.

8. So‘z va iboralar matn va assotsiatsiya orqali qanday ma’no kasb etadi? Javob: So‘z va iboralar muayyan kontekstda qo‘llanib, vaqt o‘tishi bilan muayyan g‘oya yoki tushunchalar bilan bog‘lanib, matn va assotsiatsiya orqali ma’no kasb etadi.

Mashq 2. Guruh bo‘lib bajariladigan faoliyatlar[28]:

1. Talabalaringizga so‘zlar ro‘yxatini bering va ulardan iloji boricha har bir so‘zning turli xil ma’nolari yoki talqinlarini miya hujumi qilishni so‘rang. Masalan, “ko‘z” so‘zi uchun ular “uzukning ko‘zi”, “ishning ko‘zi”, “daraxtning ko‘zi” kabi ma’nolarni topishi mumkin. Bir necha daqiqadan so‘ng har bir talaba o‘z ro‘yxatini boshqalar bilan almashadi va ular o‘ylab topgan turli ma’nolarni muhokama qilishadi.

2. Talabalaringizni juftlarga yoki kichik guruhlariga ajrating. Har bir guruhga jumla kartalari to‘plamini bering, har bir kartada bir nechta ma’noli so‘z ishlatadigan jumla mavjud. Masalan, bitta kartada “Uning yuragi toshdan” deb yozilishi mumkin. Guruhlarga har bir jumlaning iloji boricha ko‘proq turli talqinlari yoki ma’nolarini muhokama qilishni va taklif qilishni buyuring. Bir necha daqiqadan so‘ng, har bir guruh o‘z talqinlarini guruh bilan baham ko‘radi.

3. Talabalarigizga qisqacha videorolikni ko'rsating yoki ikki ma'noli filmdan sahna ko'rinishi yoki bir necha usul bilan talqin qilinishi mumkin bo'lgan qo'shiq kabi ko'p ma'noli so'zlardan foydalanilgan misollarini o'z ichiga olgan audioni eshiting. Ko'rganingiz yoki tinglaganingizdan so'ng, talabalarigizdan o'zlarining izohlarini yoki videodan olingan turli ma'nolarini yozishni so'rang. So'ngra guruhda suhbat o'tkazing, unda talabalar o'z talqinlarini baham ko'rishadi va ularning turli tushunishlari sabablarini muhokama qilishadi.

Mashq 3. Savollar:

1. Ko'p ma'nolilik nima?

- A. Belgining bir necha ma'noga ega ekanligi
- B. Belgining faqat bitta ma'noga ega ekanligi
- C. Belgining bir-biriga bog'liq bo'lmagan ma'nolarga ega ekanligi
- D. Belgining yashirin ma'nolarga ega ekanligi

2. Metonimiya nima?

- A. Biror narsaga uning atributlari yoki assotsiatsiyasi bilan murojaat qilish
- B. So'z yoki iboraning boshqa biror narsani tasvirlash uchun ishlatilishi
- C. Biror narsaning bir qismini butunga qo'llash
- D. So'z yoki iboraning ma'nosi odatdagi ma'nosiga zid bo'lsa

3. Metafora nima?

- A. Biror narsaga uning atributlari yoki assotsiatsiyasi bilan murojaat qilish
- B. So'z yoki iboraning boshqa biror narsani tasvirlash uchun ishlatilishi
- C. Biror narsaning bir qismini butunga qo'llash
- D. So'z yoki iboraning ma'nosi odatdagi ma'nosiga zid bo'lsa

4. Sinekdoxa nima?

- A. Biror narsaga uning atributlari yoki assotsiatsiyasi bilan murojaat qilish
- B. So'z yoki iboraning boshqa biror narsani tasvirlash uchun ishlatilishi
- C. Biror narsaning bir qismini butunga qo'llash
- D. So'z yoki iboraning ma'nosi odatdagi ma'nosiga zid bo'lsa

5. Kinoya nima?

- A. Biror narsaga uning atributlari yoki assotsiatsiyasi bilan murojaat qilish
- B. So‘z yoki iboraning boshqa biror narsani tasvirlash uchun ishlatilishi
- C. Biror narsaning bir qismini butunga qo‘llash
- D. So‘z yoki iboraning ma’nosi odatdagi ma’nosiga zid bo‘lsa

6. Tilshunoslikda polisemiya nima uchun muhim?

- A. Bu so‘z va iboralar matn va assotsiatsiya orqali qanday ma’no kasb etishini tushunishga yordam beradi
- B. Bu bizga polisemiyaning har xil turlarini tushunishga yordam beradi
- C. Bu bizga til cheklovlarini tushunishga yordam beradi
- D. Bu bizga tilning kelib chiqishini tushunishga yordam beradi

7. Quyidagilardan qaysi biri polisemiyaning turiga kirmaydi?

- A. Metonimiya
- B. Sinekdoxa
- C. Kinoya
- D. Omonimiya

To‘g‘ri javoblar:

- 1. A
- 2. A
- 3. B
- 4. C
- 5. D
- 6. A
- 7. D

Mashq 4. To‘g‘ri yoki notog‘ri gaplarni toping:

- 1. Ko‘p ma’nolilik belgining bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini anglatadi.
- 2. Metonimiya – polisemiyaning bir turi.
- 3. “Qalam qilichdan kuchli” – sinekdoxaga misol.
- 4. So‘z yoki iboraning boshqa narsa bilan bir xil ma’noga ega bo‘lishi metaforadir.

5. Sinekdoxa – so‘z yoki iboraning boshqa narsani tasvirlash uchun ishlatilishi.
6. “Uning tosh yuragi bor edi” – metonimiyaga misol.
7. Kinoya – so‘z yoki iboraning ma’nosi odatdagi ma’nosi bilan bir xil bo‘lsa.
8. Ko‘p ma’nolilik tilshunoslikda muhim tushuncha emas.
9. Metonimiya – biror narsaning bir qismini butunga qo‘llash.
10. Kinoya – so‘z yoki iboraning ma’nosi odatdagi ma’nosiga qarama-qarshi bo‘lishi.

To‘g‘ri javoblar:

1. Noto‘g‘ri (noaniqlik belgining bir necha o‘zaro bog‘liq ma’noga ega bo‘lishini bildiradi).
2. To‘g‘ri
3. Noto‘g‘ri (“Qalam qilichdan kuchli” – metonimiyaga misol).
4. Noto‘g‘ri (Metafora so‘z yoki iboraning boshqa narsadan farqli ma’noga ega bo‘lishidir).
5. Noto‘g‘ri (Sinekdoxa – biror narsaning bir qismini butunni ifodalash uchun qo‘llash.)
6. Noto‘g‘ri (“Uning tosh yuragi bor edi” – metafora misoli).
7. Noto‘g‘ri (Kinoya – so‘z yoki iboraning ma’nosi odatdagi ma’nosiga qarama-qarshi bo‘lishi).
8. Noto‘g‘ri (Polisemiya tilshunoslikda muhim tushunchadir).
9. To‘g‘ri
10. To‘g‘ri

Mashq 5. Insho yozish.

Insho mavzulari:

1. O‘zbek tilidagi so‘zning turli ma’nolarini o‘rganish va u ko‘p ma’noli so‘zlarni muloqotda qo‘llash haqidagi tushunchalarning shakllanish tarixini o‘rganish.
2. Murakkab his-tuyg‘ular va g‘oyalarni ifodalash uchun metaforalardan foydalanish haqida batafsil yozing.
3. Ko‘p ma’nolilik adabiyot va san’atni talqin qilishga qanday ta’sir ko‘rsatadi.

4. O'zlikni anglash va tegishlilik haqidagi tasavvurlarimni shakllantirishda sinekdoxaning o'rni.

5. Kundalik suhbatlarda kinoya orqali yashirin ma'no qatlamlarini ochish.

Umumiy insho mavzulari:

1. Ko'p ma'nolilik – maftunkor til hodisasi bo'lib, muloqotga chuqurlik va murakkablik kiritadi. Bu fikrga qay darajada qo'shilasiz yoki qo'shilmaysiz?

2. Metonimiya mavhum tushunchalarni konkret assotsiatsiyalar orqali yetkaza oladigan kuchli ritorik vositadir. Bu tildan foydalanishda ijobiy yoki salbiy rivojlanishmi?

3. Ba'zilar metafora insonni tushunish va ijodkorlik uchun zarur deb hisoblasa, boshqalari noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin deb hisoblaydi. Ikkala fikrni muhokama qiling va o'z fikringizni bildiring.

4. Sinekdoxa - yozuvchilarga kattaroq tushunchalarni kichikroq qismlar orqali ifodalash imkonini beruvchi adabiy uslub. Sinekdoxa adabiyot va san'at haqidagi tushunchamizni qanday yo'llar bilan kuchaytiradi?

5. Kinoya ko'pincha istehzo yoki satirani yetkazish uchun ishlatiladi, lekin u ijtimoiy sharhlash va o'z-o'zini aks ettirish uchun vosita bo'lib ham xizmat qilishi mumkin. Kinoya qanday darajada samarali muloqotga yordam beradi?

3.2. Tajriba-sinov ishlari tahlili

Avvalo, ma'no ko'chish turlarini o'rgatish usullarini tavsiya etishdan oldin biz talabalarda mavjud bo'lgan ma'no ko'chish turlari haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarning bugungi kundagi holatini o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlari Toshkent tibbiyot akademiyasidagi 101-guruh talabalari bilan amalga oshirildi. Talabalar rus guruhga mansub va ularda o'zbek tili kasbiy nutqni o'stirish uchun xizmat qilishi lozim. Tajriba guruhimizni T-1 sifatida belgilab oldik.

Asoslov bosqichida tajriba-sinov guruhining T-1 – 14 guruh talabalaridan 6-8 nafari bilan individual va jamoaviy tarzda suhbatlar, soʻngra berilgan badiiy matn tarkibidan koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarni topish, berilgan soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnodagi soʻzlar guruhiga ajratish, test topshirigʻi, soʻzlarni mustaqil holatda oʻz va koʻchma maʼnolarda qoʻllab gaplar tuzish kabi mashq va topshiriqlar berildi.

Ushbu natijalar matematik yoʻl bilan tahlil qilindi. Mashq-1 da talabalar bilan koʻp maʼnoli soʻzlar mavzusi boʻyicha ochiq savol-javob qilindi va 3 (21 %) tasi berilganlarga toʻgʻri javob berishgan, ammo koʻp maʼnoli soʻzlarni matndan topish vazifasi berilganda toʻgʻri aniqlay olmagan. 5 (36 %) nafar talaba esa savol-javobga aʼlo darajada qatnashib, oʻz va koʻchma maʼnoda kelgan soʻzlar sonini aniqlay olganlar. 6 (43 %) nafar talaba esa taxminiy sonlar bilan topshiriq shartiga javob berganlar.

Keyingi mashq-2 da talabalar berilgan matn tarkibidagi koʻp maʼnoli soʻzlarni belgilash, maʼno koʻchish hodisalarining turini aniqlash va ularni izohlashi soʻralgan edi. Guruhdagi talabalarning 5 (36 %) nafari birinchi topshiriqni bajargandan soʻng koʻchma maʼnodagi soʻzlar haqidagi maʼlumotlarni esga olgan holda keyingi topshiriqdagi koʻp manoli soʻzlarni aniqlay oldilar, lekin izoh bera olmadilar. Guruhdagi talabalarning 4 (28 %) nafari esa matn tarkibida maʼno koʻchish hodisalarini aniqlab, ularga bir muncha izoh berishga harakat qilganlar. 5 (36 %) nafar talaba matn tarkibidagi koʻchma maʼnoda kelgan soʻzlarni aniqlashda ham, ularni izohlashda ham xatoliklarga yoʻl qoʻyganlar.

Mashq-4 da esa talabalardan berilgan 10 ta gapdan toʻgʻri va notoʻgʻri gaplarni ajratish mazmunidagi topshiriq berilgan. Talabalarning yarmi, yaʼni 7 nafari (50 %) koʻp maʼnoli soʻzlarni aniqlay olishgan boʻlsalar-da, ularning daftarga qiyoslanishi, koʻp maʼnoli soʻzlar haqidagi fikr-mulohazalarini kimdir oz, kimdir toʻliq holatda bildira olganlar. Bunga esa albatta, talabalarning oldindan mavzu bilan tanish ekanliklari yordam berdi. 5 (36 %) nafar talabalar esa sheʼriy

parchada ma'no ko'chish hodisasini ham nomlay oldi, ham undagi o'xshatishni izohlab berdi. 2 (14 %) nafar talaba esa hech qanday fikr bildira olmadi.

Talabalarning bilimni sinash uchun berilgan test topshiriqlariga esa 6 (43%) nafar talaba berilgan 7 ta savolning hammasiga to'g'ri javob bera oladi, 6 (43 %) nafar talaba esa 3-4 ta savolga to'g'ri javob bera oldi. Qolgan 2 (14 %) nafar talaba topshiriqlarning 1-2 tasiga to'g'ri javob bera olgan.

Olib borilgan matematik tahlil asosida tajriba-sinov guruhining o'zbek tilida ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanilishiga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari quyi darajada deb topildi. Ya'ni, talabalar o'rganilayotgan mashqlardagi asosiy mohiyatni anglashga qiynalishdi, asosiy e'tiborni ikkinchi darajali belgi, xususiyat, faktlarga qaratishdi, analiz, sintez, umumlashtirish usullarini qo'llay olishmadi, bunda har doim o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lishdi, ko'pincha tayyor yechimlardan foydalanishga moyilliklari sezildi.

Biz tavsiya etgan usullar, o'tilgan ochiq darslar, olib borilgan tushuntirish ishlaridan so'ng talabalarning ma'no ko'chish turlariga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini sinash maqsadida guruhdan oldingi topshiriqlarga o'xshash topshiriqlardan iborat bo'lgan nazorat ishlarini olish tashkillashtirildi. Ushbu nazorat ishlari oldindan belgilangan T-1 guruh bilan birgalikda olib borildi, hamda guruhda 14 nafar talaba ishtirik etdi.

Nazorat uchun berilgan mashq-1 topshirig'ini 9 (64 %) nafar talaba o'z ma'nosida kelgan so'zlarni aniqlay olganlar, ko'p ma'noli so'zlarning bir nechtasini ko'rsatganlar, 4 (29 %) nafar talaba esa topshiriqni to'g'ri bajarib, o'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zlar sonini to'g'ri ko'rsatdilar. 1 (7 %) nafar talaba esa o'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni aralash holda ko'rsatganlar.

Keyingi mashq-2 da esa talabalar berilgan matn tarkibidagi ma'no ko'chish hodisalarini aniqlashi va ularni izohlashi so'ralgan edi. Berilgan topshiriqni 10 (72%) nafar talaba matn tarkibidagi ko'p ma'noli so'zlarni aniqlab, ularga tegishli izohni bera oladilar. 2 (14 %) nafar talaba matn tarkibidagi ma'nosi ko'chgan so'zni aniqlay oldi, ammo unga tegishli izohni noto'g'ri berdi. 2 (14 %)nafar talaba

esa matn tarkibidagi ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni aniqlash va izohlashda xatoliklarga yo'l qo'ydi.

Mashq-4 dagi test savollariga javob berishda guruhdagi talabalarning 11 (78%) nafari berilgan test topshiriqlarning barchasiga to'g'ri javob bergan bo'lsalar, 2 (14 %) nafari 3-4 ta savolga to'g'ri javob bera oldilar. 1 (7 %) nafar talaba esa 1 ta yoki 2 ta savolga to'g'ri javob bergan.

Oxirgi berilgan ko'p ma'noli so'zlarni o'z va ko'chma ma'nosida qo'llab gaplar tuzish topshirig'ini esa 9 (64 %) nafar talaba to'g'ri bajara oldi. 3 (21%) nafar talaba esa berilgan so'zlarning hammasiga ham gaplar tuza olmadilar. 2 (14 %) nafar talaba esa berilgan so'zlarni faqatgina o'z ma'nosida qo'llab gaplar tuza oldilar.

Biz ushbu matematik tahlil natijalarini o'zaro solishtirish imkoniyatini yuzaga keltirish maqsadida quyidagi jadvalga joylashga harakat qildik.

Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari (foiz hisobida, birinchi natija)		
	Yuqori	O'rta	Quyi
14	36 %	43 %	21 %
Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari (foiz hisobida, keyingi natija)		
	Yuqori	O'rta	Quyi
14	72 %	21 %	7 %

XULOSA

Ta'lim jarayoni barcha davrlarda ham kishilik jamiyatining barcha erishgan yutuqlari, yangiliklari va kelgusi taraqqiyotining asosiy omili hisoblangan. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni imkoniyati kengligi va o'ta xushyorlik bilan amalga oshirilishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Aynan ta'limga oid shart- sharoitlarni mukammalroq shakllantirish uchun bir qator izlanishlar muhimligi bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri sanaladi.

O'quv-uslubiy qo'llanma ma'no o'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish usullariga bag'ishlangan ekan, eng avvalo biz birinchi **“O'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarning nazariy tahlili”** bobida ko'p ma'noli so'zlar va ularning yasalishi, ma'no ko'chish turlari haqida nazariy ma'lumot va uni o'qitish usullarining ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilishi hamda talabalarning nutq madaniyatini ma'no ko'chish turlari orqali rivojlantirish imkoniyatlari yuzasidan dastur va darsliklar tahliliga e'tiborimizni qaratdik. Ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ko'p ma'noli so'zlarning yasalishi asosan ma'no ko'chish yo'llari ilmiy jihatdan jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan yetarlicha o'rganilgan. Mana shu o'rganilgan nazariy ma'lumotlar asosida o'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, ko'p ma'noli so'zlarning nutqdagi ahamiyatini talabalarga tushuntirish, talabalar nutqida ko'p ma'noli so'zlardan foydalanishni faollashtirish uchun ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan bir qancha innovatsion usullarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish o'zbek tili o'qitish metodikasi fanining muhim vazifalaridan biri degan xulosaga keldim.

Maktab va oliy ta'lim darsliklarda ushbu mavzular bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berilgan bo'lib, ularni har bir o'qituvchi o'zining ijodiy yondashuvi yordamida boyitgan holda tashkillashtirishi mumkin. Ayniqsa, biz yuqorida alohida ta'kidlab ko'rsatgan mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar o'zbek tilimizning naqadar boy ekanligiga, nutqimizning jozibali va ta'sirchanligini oshirishda ko'p ma'noli so'zlar ishtiroki qay darajada muhim ekanligiga yana bir bor

guvoh bo‘ladi. Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlarni bajarish davomida talabalar xalqimizning azal-azaldan so‘zga chechan, so‘zamol xalq ekanligini ko‘rib, ushbu so‘zamolikni yuzaga keltirishda ko‘p ma’noli so‘zlarning juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilib oladilar.

Ikkinchi bob **“Ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatish metodikasi”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek tili darslarida ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rganish orqali nutq madaniyatini rivojlantirishning mazmuni ko‘rib chiqildi va quyidagi xulosaga kelindi: ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘qitish jarayonida eng avvalo, talabalarga uning nutqdagi ahamiyatini tushuntirish, talabalarni so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini farqlashga, ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni aniqlay olish, ularni izohlash va o‘z nutqlarida qo‘llay olish darajasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollanishiga asosiy e’tiborni qaratishi kerak bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu bobda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zbek tili va adabiyot darslarining o‘zaro integratsiyasi asosida o‘rganish bo‘yicha ayrim tavsiyalar berib o‘tildi. O‘zbek tili va adabiyot darslarini o‘zaro integratsiya asosida tashkil etilishi o‘rganilayotgan badiiy matnning til xususiyatlarini o‘rganish bilan birga, alohida bosqichda shu badiiy matnda mavjud bo‘lgan badiiy tasvir vositalarini aniqlashga, ularga nisbatan e’tiborli bo‘lishga, bundan tashqari ushbu vositalarning o‘zbek tili fanining o‘rganilayotgan hodisalar bilan qanday aloqadorlik hosil qilishini anglash uchun juda katta yordam beradi degan xulosaga kelindi.

Shu bilan birgalikda, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatish orqali talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirishning metodlari takomillashtirildi. O‘zbek tili darslarida har bir mavzuni qiziqarli va talaba nutq madaniyatiga va nutqning hissiy-ta’siriy jihatdan boyishiga ko‘mak beruvchi mashq va topshiriqlarni, turli xil o‘yinlarni tashkillashtirish imkoniyati mavjudligi aytib o‘tildi. Bu esa talabalardan juda katta ijodkorlik, mahorat talab etadi. Yuqorida biz ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘qitish orqali talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirish va so‘z boyligini oshirishga qaratilgan darslarni “Kreativ talaba” usuli, “Zehnli kitobxon” usuli, “Bilag‘on

talaba” usuli, “Matn tahlili” usuli, “Qiyosiy tahlil” usuli, “Izohli lug‘at orqali ishlash” usullar bilan boyitish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tdik.

Uchinchi bob **“O‘zbek tilidagi ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘zlashlashtirilganlik darajasini baholash”** deb nomlandi va ushbu bobda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatish orqali talabalarning nutq madaniyatini oshirishga doir mashqlar janlanmasi, tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun tayyorlangan materiallar va olib borilgan amaliy ishlar bo‘yicha tahlil natijalari ko‘rsatildi. Ushbu tahlil natijalariga ko‘ra ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘qitishning zamonaviy, interfaol usullaridan foydalanish talabalarning ushbu hodisaning tildagi ahamiyatini bilishiga, undan nutqda o‘rinli foydalangan holda talaba nutqining hissiy-ta’siriy jihatdan boyitishiga juda katta yordam berdi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari samaradorlikni kafolatlashi, tizimlilik va izchillikni ta’minlashga xizmat qilishi, nutq madaniyatini rivojlantirishda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rgatishning yangi interfaol usullariga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi haqidagi tadqiqot farazini to‘liq tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. Xalq so'zi, 2017-yil, 21-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni //O'zbekistonning yangi Qonunlari: To'plam. –T., 1996. – B. 20-30.

III. Maxsus adabiyotlar

9. Almamatov T., Yadgarov Q. va Almamatova Sh. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent, 2013.
10. Abdiyev M., Safarov P. Noan'anaviy dars shakllari. (Ona tili va adabiyoti uchun qo'llanma). – Samarqand. 1996. 22-b.
11. Abdullayev Y. Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi. – T.: O'zPFITI, 1953
12. A. G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 2020 yil.
13. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. – Ped. fanlari nomzodi diss. avtoref. – T.: 1997.
14. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения (обшедидактический аспект). – М.: Педагогика, 1977.
15. Бабанский Ю.К., Поташник М.М. Оптимизация педагогического процесса (в вопросах и ответах). – Киев: Радянска школа, 1984.
16. Бухаловский Л. А. Введение в языкознание. – М.: Учпедгиз, 1954

17. Inog'omova R. Fe'l zamonlarini o'rganishda o'quvchilarning nutqi ustida ishlash. Ped. fanlari nomzodi diss. avtoref. – T.: 1974.
18. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda pedagogik texnologiyalar. – T., 2008. 181b.
19. Jo'rayev R.X., Raximov B.X., Xolmatov Sh.F., Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan. 2005. 66 b.
20. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.
21. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik /. To'ldirilgan 4-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.
22. Марузо Ж. Словар лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004.
23. M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulov. O'zbek tili. –T.: O'qituvchi, 1970.
24. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. –T.: Fan. 2010.
25. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2010.
26. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan 3-nashri. – T.: Ilm Ziyo, 2010. – 223 b.
27. Никитина Г.Г. Обучение младших школьников творческим работам на основе интеграции языковой и литературной подготовки. Составление рассказа по серии сюжетных картинок // Начальная школа. – 2007. – № 5
28. Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
29. Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
30. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi, 2000.
31. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977-yil.
33. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar

- kollejlari uchun darslik. 4-nashri.–Toshkent: Sharq, 2010.
32. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 2003.
33. Rahmonova B., Fayziyeva D., Jabborqulova A. Nasriy matnda metaforaning o‘rni //O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – T.:2009
34. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
35. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
36. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslik. – Toshkent. 1965.
37. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
38. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
39. Tolipov O‘. Usmonboyeva M., Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
40. U.Tursunov, N.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2018 yil.
41. Вигоцкий Л. С. Мышление и реч. – М., 2007.
42. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim makablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua/ Qayta ishlangan 3-nashri.
– Toshkent: Sharq, 2013. – 368 b.
43. Yusupova Sh., G‘oziyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013.
44. Yo‘ldoshev J.G‘. Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiya-larni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya. 2008. 130b.

45. Ziyomuxamedov B., Pedagogik texnologiya – zamonaviy milliy modeli. – T., 2009. 103 b.
46. Ziyomhammadov B, Abdullayeva Sh., Ilg‘or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.
47. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent. O‘qituvchi. 2018 yil.
48. O‘zbek maktablarida ona tili ta’limi konsepsiyasi // Til va adabiyot ta’limi. – 1994. – № 1. – B. 8-13.
49. O‘zbek tili o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. – Toshkent, 2017.
50. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T. I. - M: 1981.-B. 380.
- O‘zbekiston: Til va madaniyat. III seriya. O‘zbek tili talimi. – Toshkent, 2017.
51. G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta’limining mazmuni. – T.: O‘qituvchi, 1995.
52. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T: Fan va texnologiyalar, 2012.
53. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. II qism. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti. 2021 yil.

IV. Elektron ta’lim resurslari

54. www.ref.uz
55. www.ilm.uz 56. www.google.uz
57. <http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-zbek-tili-va-adabiye-13-05-2016>
58. <http://www.ziyonet.uz/>
59. <http://www.pedagoguz/>
60. www.forum.uz



ASLANOV AKMAL SUBXANOVICH
UNDERSTANDING OF MULTIPLE
MEANING WORDS IN UZBEK
LANGUAGE

Monograph.

Fergana- USA Global Book
Publishing Services (GBPS)
USA 2024, 53 p.

Email: info@scientificpublication.org
Global Book Publishing Services
1211 Polk St, Orlando,
FL 32805, USA

